



2024
№ 1

ISSN 3030-380X

**TA'LIMDA
ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Международный научно-методический журнал

PROMISING RESEARCH IN EDUCATION

International Scientific Methodological Journal

**Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot
va axborot boshqarmasi tomonidan 2024-yil 26-mart № 245685 -sonli
guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

**Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi tomonidan davriy
nashrlar uchun ISSN 3030-380 X raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.**

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: buxdu_rektor@buxdu_uz

BOSH MUHARRIR:
XAMIDOV OBIDJON XAFIZOVICH

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Кулишев В.В** - pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina)
Andriyenko Y.V - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk, Rossiya)
Romm T.A - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk, Rossiya)
Maskimsev I. A - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Sankt-Peterburg, Rossiya)
Margianti E.S - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Jumayev R.G' - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasulov T.H - Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Paxrutdinov Sh.I. - siyosiy fanlar doktori, professor
Jo'rayev A.T - iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Yavmutov D.Sh. iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Salixov S.A - iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mamanazarova N.K. - Pedagogika fanlari doktori, DSc, dotsent
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Xamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Zaripov L.R - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Sayfullayeva N.Z – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Mas'ul kotib:
Tilavov Muxtor Hasan o'g'li – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Texnik muharrir: Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovichning

Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori,
psixologiya fanlari nomzodi, professor

O'ZBEKISTONDA AJRALISHNING IJTIMOY, ETNOPSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI OLDINI OLIISH YO'LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada notinch muammoli oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos jihatlari va notinch muammoli oilalarning o'ziga xos jihatlarning aniqlangan. Bundan tashqari oila a'zolarida shakllangan nizolar to'g'risidagi tasavvurlarning konstruktiv xususiyatlari va destruktiv tasavvurlar esa notinch oilalardagi o'zaro munosabatlar jarayonida namoyon bo'luvchi qattiqqo'llilik, shafqatsizlik, tazyiq, avtoritarizm kabi holatlar o'rganilgan. Shuningdek notinch muammoli oilalar bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nizo, destruktiv, konstruktiv tip, psixologik xizmat, notinch oilalar, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy ustanovka, tafakkur, ijtimoiy sanksiyalar.

СОЦИАЛЬНЫЕ, ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

Аннотация. В этой статье рассматриваются конкретные аспекты психологического обслуживания неблагополучных проблемных семей, и определены конкретные аспекты неблагополучных проблемных семей. Кроме того, были изучены конструктивные особенности представлений о конфликтах, сформировавшихся у членов семьи, и деструктивных представлений о таких ситуациях, как жестокость, жестокость, угнетение, авторитаризм, проявляющиеся в процессе взаимодействия в неблагополучных семьях. Также была проанализирована научная литература, связанная с проблемными семьями.

Ключевые слова: конфликт, деструктивный, конструктивный тип, психологическая служба, неблагополучные семьи, социально-психологические факторы, социальная установка, мышление, социальные санкции.

SOCIAL, ETHNOPSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF DIVORCE AND WAYS TO PREVENT THEM IN UZBEKISTAN

Abstract. This article identifies specific aspects of psychological care for troubled families and specific aspects of troubled families. Moreover, the constructive features of visions of conflicts formed in family members and destructive visions are studied, while situations such as harshness, cruelty, repression, authoritarianism, manifested in the process of interaction in troubled families. Also analyzed scientific literature related to troubled families.

Keywords: conflict, destructive, constructive type, psychological service, troubled families, socio-psychological factors, social ustanovka, thinking, social sanctions.

Kirish. Oilaviy muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nau barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi

ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev, oilada hukmron bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy muhit va noyob udumlarimizning xosiyatlari haqida fikr bildirib: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-essonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir", deb ta'kidlaganlar.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D. Mayers, V. Kvinn, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o'rganilgan.

Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o'zbek muhitiga to'g'ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odat, an'ana va milliy qadriyatlari boshqasini mos kelmaydi. Muhimi, O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish zarur. Ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O'zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G'. G'oziyev, Sh.R. Baratov, M.Mamatov, B.M. Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o'rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta'sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Tanlangan mavzuimiz huddi mana shuning uchun ham dolzarbdir.

Muhokama. Ma'lumki, oilaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni va oilaviy o'zaro munosabat oqibatlari masalasi psixolog hamda pedagog olimlarning diqqat markazida turgan muammolardan biridir. Bu muammoga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar esa, asosan, har bir millat mentaliteti, o'sha jamiyatda ustuvor bo'lgan oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan. Zero, oilada kamol topayotgan yosh avlod dunyoqarashining to'g'ri shakllanishi oila a'zolari o'rtasida barqaror bo'lgan sog'lom munosabatlarning xarakteriga bog'liq. Bu esa, bola ongida ijobiy va salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishiga zamin bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda oila va nikoh muammolarining ortib borishi munosabati bilan, so'nggi yillarda oilaviy masalalar quyidagi ikki yo'nalishda o'rganilmoqda:

a) jamiyat tomonidan oilaga nisbatan alohida munosabatning shakllanayotganligi, ya'ni nasl qoldirish, bolalar tarbiyasi kabi qator ijtimoiy rollar ahamiyatining ortishi;

b) oilada sodir bo'layotgan ayrim salbiy hodisalar, jumladan, oilaviy ajrimlarning ko'payishi, bolalar tarbiyasidagi kamchiliklar, o'zaro munosabatlardagi turli xil nizolar, er-xotin mojarolarini ortishi kabi holatlarning jamiyatga keltirayotgan zararining ortishi kabilar.

F. Bekon qarashlarida nizolarning oldini olish, uni bartaraf etishda siyosiy manyovr san'ati alohida xususiyat kasb etgan. U shunday yozgan: "Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga yetaklash norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda, ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni o'z

vaqtida orzu va umid uchqunlari bilan yumshata oladigan hukumat oqildir; bu narsa aytarli mushkul emas, zero, shaxslar va ba'zan butun boshli partiyalar o'z istiqbollariga ishonmasalarda, baribir, orzu-umidlar to'g'risida ochiq gapirib, o'zlarini ana shular bilan ovutadilar”.

XX asrning boshida Amerikada o'tkazilgan qator izlanishlar asosida, bola ijtimoiylashuvi jarayonida otaning o'rniga xos bo'lgan quyidagi umumiy sifatlar qayd etildi:

1. Otasiz bolalar sonining ortib borayotganligi, oilada otaning kam bo'lishi;
2. Ota bilan bola o'rtasidagi muloqotning onanikiga nisbatan sezilarli darajada kamligi;
3. Pedagogik nuqtai nazardan otalarning bilimsizligi, malakasizligi;
4. Bolaga, ayniqsa, kichik yoshlilarga g'amxo'rlik qilish malakasining otalarda kamligi va unga bo'lgan sovuqqon munosabat, layoqatsizlik.

Natijalar tahlili. Biz tadqiqotimizda ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (Siz va farzandlaringiz)dan foydalandik.

Ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlari – azaliy, avlodan-avlodga uzatilib kelinayotgan muammodir. Nima uchun bir oilada tinchlik va o'zaro tushunish hukm suradi-yu, boshqa bir oilada esa bolalar va ota-onalar tinimsiz nizolashadi? Farzandingiz sizni qanday odam deb hisoblaydi, o'smirlarda ijtimoiylashuv qanday shakllanadi? Bu masalani ushbu test yordamida aniqlab olishga urinib ko'ring. Test natijalari quyidagi kalit yordamida qayta ishlab chiqiladi.

Test javoblari uchun blanka

1-jadval.

Savollar t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	2	2	2	3	1	2	3	3	4	3
B	3	3	4	1	3	4	1	4	3	2
V	1	4	3	0	2	3	2	1	2	4
G	4	1	1	2	4	1	4	2	1	1

Javoblaringizni baholab chiqing va ballar yig'indisini hisoblang.

Natijalar izohi.

10 dan 15 ballgacha: Loqayd. Siz bolalarni o'z hayotingizning qayoqdandir kelib qolgan qo'shimcha (ikkinchi darajali) mahculoti deb hisoblaysiz. «O'zim uchun yashashni xohlayman!» shiori sizning farzandingiz bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlaringiz tuzilishining boshlang'ich nuqtaci hisoblanadi. Siz o'z hayotingiz bilan yashaysiz va unda farzandingizga joy topilmaydi. Siz tomoningizdan bolaga nisbatan bo'lgan covuq munosabat, u tomonidan sizga nisbatan intilish hiscini tug'dirmaydi. Yildan yilga sizlar bir-biringizdan uzoqlashib boraverasizlar. Odatdagi uchrashuvlaringiz muloqotdan iliqlik va quvonch bermaydi. Moddiylik – sizlarni bog'lab turgan yagona jihatdir. Hayotning bu jihatidan ajralib chiqqandan so'ng, sizlarni bog'lab turuvchi nozik iplar (rishtalar) butunlay uziladi. Aytish mumkinki, keyinchalik sizlarning uchrashuvingiz ikkala tomon uchun ham istalmagan bo'lib qoladi.

16 dan 25 ballgacha. Zolim. Siz oila boshlig'i ekanligingizga to'la ishongan holda yashaysiz. Shuning uchun bola sizga so'zsiz quloq solishi va sizning barcha talablaringizni so'zsiz bajarishi kerak, deb hisoblaysiz. Sizning fikringiz – eng so'nggi (hal qiluvchi) fikr hisoblanadi. Bolaning fikri, uning qiziqishlari va muammolari sizni qiziqitirmaydi. Sizning bolani tarbiyalash va o'qitish borasida aniq rejangiz mavjud. Bolani sizning shiddatli qat'iyiligingizga qarshiligi faqat olovga moy quygandek bo'ladi. Qarshi turishga ojiz bola, doimiy nizodan qochish uchun chetga o'tishga, o'zi bilan o'zi ovora bo'lishga, jazavaga tushgan ota-onaning pand-nasihatlarini jimgina tinglab turishga majbur. Kelajakda, sizning betinim nazoratingiz ostidan chiqqanidan so'ng, sizning «yuvvosh», «itoatkor» farzandingiz,

siz uzoq yillar davomida betinim o'rgatgan-laringizga, shunchaki o'chakishib, ularning teskaricini qilishi mumkin.

26 dan 34 ballgacha. O'rtoq. Siz bolangiz bilan ishonchli o'zaro munosabatdasiz. Siz uning barcha kichik baxtsizligi va quvonchlaridan boxabarsiz. Bola sizni eng yaqin o'rtoq deb hisoblaydi va sizni gapi bilan ham, xatti-harakati bilan ham ranjitmaslikka harakat qiladi. Lekin mabodo shunday holatlar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa, unda sizlar yarashish yo'llarini tezda topa olasizlar va nizo uzoq davom etadigan o'zaro urushga aylanmaydi. Siz bolangizning xatti-harakatlariga ishonasiz va uning u yoki bu vaziyatda o'zini qanday tutishini oldindan bila olasiz. Bola sizda ishonchli tayanch va himoyani ko'radi. Sizlar bir-birlaringiz bilan oddiy betakalluf (oshna-og'aynilik) munosabatlariga o'tib ketmay teng gaplashasizlar. Siz bolangizga nisbatan talabchan va me'yorli qattiqqo'lsiz. Sizlarning munosabatingiz ikki tomonlama hurmat asosida tuzilgan.

35 dan 40 ballgacha. Xizmatkor. Sizning farzandingiz sizni oshkora xo'rlaydi. Siz kichik yoshlaridan boshlab uning barcha injiqliklariga yo'l qo'yib beraverib, o'z xohishingiz bilan uning xizmatiga kirgansiz. U o'sib borgan cayin tobora ko'proq sizning fikringiz bilan hisoblashmaydigan bo'lib boradi. Siz pushaymon bo'lib (afsus bilan) «Mening avvalgi muloyim kichkintoyim bilan nima ro'y berdi?» deb o'ylaysiz. Siz u shunchaki, Ptolomeyning falsafiy pozitsiyasida turib olib butkul koinot mening atrofimda aylanadi, deb oshkora hisoblashini tushuna olmaysiz ham. Kopernik kelib olamning tuzilishini tushuntirib berib siz tarbiyalagan bola ongini boshidan oyog'iga ag'darib yuboradigan onlar hali oldinda. Faqat bu yordam berarmikin? Qanday bilish mumkin...

2-jadval.

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so'rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar (n=30)

Omil	Soni (erkak)	%	Soni (ayol)	%
Loqayd	10	32	7	22
Zolim	9	29	10	43
O'rtoq	3	14	5	13
Xizmatkor	8	25	8	26
Jami:	30	100	30	100

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so'rovnomasi natijalariga ko'ra «loqaydlik omili» erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko'rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko'chada mehnat faoliyati bilan band bo'lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo'lishadi. Ona esa aksincha kun davomida bolasi bilan ovora bo'ladi, uning xursandchiligi, injiqliklarini ko'radi, ehtiyojlarini bajarishga ko'maklashadi, bu esa ularning avtomatik tarzda etiborli bo'lishlarini talab qiladi. Bolalar ulg'ayib o'smir yoshga yetganda ham o'z dunyoqarashi bilan ovoradek tuyilsa-da, malum bir masalalarda, masalan, kasb tanlash, o'qish, muhim bir qaror qabul qilish borasida ko'proq onasi bilan maslahatlashadi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo'l, talabchan) omili bo'yicha erkaklar 29% ni, ayollar esa 43%ni egalladi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qilishdi. Bunga sabab o'z-o'zidan 1-omilga borib taqaladi. Chunki ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo'lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko'rishadi, his qilishadi va ma'lum o'rinda xurcand bo'lishadi va kamchiliklarini tuzatishga harakat qilishadi. Zolim omilini farzandga qilingan qattiqqo'llik, tanbeh berish manocida izohlash maqsadga muvofiq. Shunday vaziyatlar paydo bo'ladiki, farzand ulg'aygan sari unga turli omillar ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu omillar bola ruhiyatiga salbiy va ijobiy tasirini ko'rsatishi mumkin. Salbiy taassurotlarga berilish farzandni keskin harakatlar qilishga, noto'g'ri fikrlashga undaydi. Farzand xatti-harakatlarida kuzatilgan tartibsizlik yoki noo'rin taassurotlar ota-onani, ko'proq onani jazo qo'llash yo'li bilan farzandni tartibga solish usulidan foydalanishga majbur qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko'proq foydalanishadi.

3-omil «O'rtoq» omili bo'lib, bunda erkaklar 15% ni, ayollar 14% natija egallashdi. Ushbu ko'rsatgichdan ma'lumki, farzand bilan do'stona munosabatda bo'lishda ota-onalar qisman teng o'rinda turishar ekan. Ammo qaysidir ma'noda otalar onaga nisbatan farzandiga biroz ustunlik qilishadi, ayniqsa, o'g'il bolalar bilan munosabat o'rnatish va uni caqlab qolishda otaning o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota-ona, balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir-birini tushunib his qila oladigan darajadagi do'stona munosabatlarni o'rnatish olish kelajakda farzand tarbiyasining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bu o'rinda ota-onaning roli beqiyos sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg'aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota-onaning vazifasidir. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to'g'ri maslahat bera olish va yordam qo'lini cho'zish farzand va ota-ona o'rtasidagi do'stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Metod natijalari bo'yicha 4-omil «Xizmatkor» (farzand tomondan barcha kamchiliklariga ham ko'z yumadigan ota-ona timcoli) omili bo'lib natijalarga ko'ra erkaklar, yani ota obrazi 25% ni, ayol(ona)larimiz 26% ni egallashdi va erkaklardan ma'lum bir ustunlikni ko'rsatishdi. Buni izohlash uchun metoddan olingan natijalarga jumladan, yuqoridagi 3 ta omilga nazar tashlash kifoya. Ya'ni bola dunyoga keldiki, malum sabablarga ko'ra otaga nisbatan ona uning yonida ko'proq bo'ladi, yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo'ladi, mas'uliyat egaciga aylanadi. Otalar o'z-o'zidan mehnat faoliyati sababli biroz e'tiborsizdek namoyon bo'lishadi. Bola ulg'aygan sari inijlik va kamchiliklari paydo bo'lsa ham otaga nisbatan ona qattiqqo'llik namoyon qilishadi. Chunki ayollar bolasining tug'ilgandan yo'l-yo'riqqa o'rgatib kelganliklari sabab bolaning yillar davomidagi yosh xususiyatlari tashqi omil ta'sirlari ham onaga tashvishli vaziyat tug'diradi. Shu bois tanbeh berish va jazolash usullarini ham qo'llashlari mumkin. O'rtoqdek munosabatlarda ham ota-ona birdek o'rinli, ammo farzand ulg'aydiki, otaning roli ham kuchaya boshlaydi. Ushbu ko'rsatgichlardan kelib chiqib 4-omilda ham ayolning ustunligiga guvoh bo'lishimiz tabiiy jarayon hisoblanadi. Bolalikdan bolaning xurcandchiligiga guvoh bo'lgan, kamchiliklariga ko'z yumgan ona farzandi ulg'aygandan so'ng ham u uchun barcha aytganlariga rozi bo'ladigan, kamchiliklarini unutadigan, nima desa ham ma'qullaydigan, ya'ni farzandga bo'ysunadigan ayol(ona) timcoliga aylanib qoladi. Ammo onalar o'zini bu timcolda shakllantirganini bilishmaydi, chunki doimo ularda ijobiy psixologik hislar ustunlik qiladi. Ko'pgina ota-onalar bolada kuzatiladigan yosh xususiyatlaridan xabardor bo'lmaganliklari bois hissiyotga tayanib bola tarbiyasi bilan shug'ullanishadi.

Xulosa va tavsiyalar. Oilaviy nizolar kecha paydo bo'lgan muammo emas. Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik va nikohning bekor qilinishi azaldan mavjud bo'lgan. Ammo so'nggi yillarda ajrimlar sonining keskin ortib borayotgani insoniyatni chuqurroq mushohada yuritishga undaydi. Bunga butun jamiyat tomonidan katta talofotdek qaralishi, oldini olish choralarini ko'rishga shoshilmoqlik lozimdir.

Yangi hayotga qadam qo'ygan har bir inson baxtli turmush, muhabbat va sadoqatni ko'ngliga tugadi. Kun kelib juftiga xiyonat qilish, mojaro va ajrimlar ularning hayoliga ham kelmaydi, albatta. Ammo muammolar go'zal turmushga chang solib, tomonlarning bir biriga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirgan, oilani barbod etgan holatlar barcha zamon va makonlarda uchraydi. Tavsiya sifatida "Oilada erkaklarning burchi va vazifalari", "Oilada ayollarning burchi va vazifalari" mavzularida boy merosimizga asoslanib, davra suxbatlarini tashkil etish va o'tkazish va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yunusov A.B. O'smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik ho-latlarining sotsiologik xususiyatlari. Sotsiologiya fanl. nomz. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. – T.: 2004. 24-b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. – Toshkent: Yulduzcha, 1990.-192 b.
3. Shoumarov G'.B., Rasulova Z.A. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent, 2016. – 416-bet.

4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. - 180 b.
5. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri.- Toshkent, 1999.-245 b.
6. Шоумаров Г.Б., Морщина Е.А. Влияние психологических особенностей узбекской семьи на воспитание молодежи // Проблемы совершенствования нравственного воспитания студентов. Материалы конференции. – Сыктывкар: 1986. – С.161-169.
7. Шихирев П.Н. Современная социальная психология. М.: Академии-ческий Проект, 1999.– С. 95.
8. <https://materinstvo.ru/art/2074>
9. <https://sof.uz/news/show/9488-oilaviy-munosabatlarga-puturetkazuvchi>
10. [http://ijtimoiyfikr.uz/uz/tadqiqotlar/15-may Xalqaro oila](http://ijtimoiyfikr.uz/uz/tadqiqotlar/15-may-Xalqaro-oila)
11. <https://www.docsity.com/ru/konflikty-v-molodyh-semyah>

Nazarov Akmal Mardonovich

Buxoro davlat universiteti

*Psixologiya va sotsiologiya kafedrasini mudiri,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

Abdullayev Shahzodjon Zokirjonovich

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasini 2 - bosqich magistranti

TALABA-YOSHLARDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirishning psixologik usullari to'g'risida ilmiy-amaliy hamda tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy, pedagogik, iqtisodiy, psixologik omillarning ta'siri hamda ushbu faoliyatga to'g'ri yo'naltirish mexanizmlari tadqiq qilingan.

Tayanch so'zlar: innovatsiya, metodologiya, mexanizm, individual, komponent, adekvat, malaka, adaptatsiya, qobiliyat, psixoanalitik, fenomen, strategiya, stress, emotsiya, kognitiv, hissiy, xulq-atvor, adaptiv, ekstremal, psixoterapiya, stereotip, patologik, agressiya, rehabilitatsiya, psixokorreksiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНО- ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье представлена научно-практическая и аналитическая информация о психологических методах развития научно-инновационной деятельности молодежи. Также исследовано влияние социальных, педагогических, экономических, психологических факторов, обеспечивающих эффективность научно-инновационной деятельности у молодёжи, а также механизмов правильной ориентации на данную деятельность.

Ключевые слова: инновация, методология, механизм, индивидуальный, компонентный, адекватный, компетентность, адаптация, способность, психоаналитический, феномен, стратегия, стресс, эмоция, когнитивный, эмоциональный, поведенческий, адаптивный, экстремальный, психотерапия, стереотип, патологический, агрессия, реабилитация, психокоррекция.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE ACTIVITIES IN STUDENT-YOUTH

Abstract. This article presents scientific and practical and analytical information on psychological methods of development of scientific and innovative activities of young people. Also, the influence of social, pedagogical, economic, psychological factors that ensure the effectiveness of scientific and innovative activities in young people, as well as the mechanisms of correct orientation to this activity were studied.

Key words: innovation, innovation, methodology, mechanism, individual, component, adequate, competence, adaptation, ability, psychoanalytic, phenomenon, strategy, stress, emotion, cognitive, emotional, behavioral, adaptive, extreme, psychotherapy, stereotype, pathological, aggression, rehabilitation, psychocorrection.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalarida ilmiy va innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanma va innovatsion faoliyat natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, tadqiqotlarning samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish alohida etibor berilmoqda. Bu borada barcha sohalarida jumladan, oliy ta'lim muassalarida ham ilmiy va innovatsion faoliyatni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishga doir empirik tadqiqotlar olib boorish davrning o'zi taqozo etmoqda.

Dunyoda aynan intellektual mulk sohasida bilan shug'ullanuvchi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) hamda Kornell universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan "Global innovatsiyalar indeksi" (GII) jurnalining hisobotida jahon davlatlarining ilmiy yutuqlari, innovatsion salohiyati, innovatsion ko'rsatkichlari bo'yicha yillik reytingi e'lon qilinib borilmoqda. Shunga muvofiq tarzda O'zbekiston Respublikasini "Global innovatsion indeks" (GII) reytingida 2026 yilgacha 30 pog'onaga ko'tarish vazifasi belgilangan. Butunjahon intellektual mulk tashkilotning (WIPO) yillik reyting natijalarida O'zbekiston 81 ta indikator bo'yicha baholanadigan Global innovatsion indeks reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog'onaga ko'tarilganligini alohida e'tirof etish mumkin.

Yurtimizda ayniqsa, talaba-yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirish bo'yicha bir qancha samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, bu borada ilmiy, ijodiy va innovatsiya sohasiga taaluqli huquqiy normativ hujjatlar qabul qilinganligi bu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan. Farmonga asosan innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va yani 1,5 trillion so'mga yetkazilgan; 2018-yildan boshlab har yili o'tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi - "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion haftaliklar tashkil qilinmoqda. Bu haftaliklar ilmiy-innovatsion oylarga innovatsion yillarga aylanib bormoqda.

Ilmiy va innovatsion faoliyat insoniyat madaniyatining bir qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining eng muhim yo'li sifatida qabul qilingan bo'lib, bu insonlarning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlari, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda maqsadlarini amalga oshirishda o'ziga xos shaxs faoliyatining noyob shaklidir. Zamonaviy dunyo jamiyati va ilmiy-innovatsiyalarni axborotlashtirish jarayonida bunday faoliyat mamlakatning eng muhim strategik maqsadlarini hal qiladigan ilmiy loyihalarni joriy etish bo'yicha yangi g'oya va ishlanmalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda talaba-yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularni ushbu sohaga yo'naltirish dolzarb muammolardan sanaladi. Ushbu muammolarga yechim topish maqsadida shaxsning mavjud imkoniyatlari, individual xususiyatlarini va kreativ, kognitiv jarayonlarini empirik o'rganish natijasida amalga oshirish mumkin.

Innovatsiya har qanday jarayonga yangi tashkiliy uslub kiritish hisoblanadi. Innovation - tushunchasi birinchi bo'lib XIX asrda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda uchraydi. "Innovatsiya" tushunchasining yangicha yo'nalishini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy sohalarining rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy tadqiqotlarida qo'llagan. Taniqli iqtisodchi Y.Shumpeter 1900-yillarda iqtisod sohada ushbu termini ilmiy jihatdan qo'llagan ilk olimlardan biri hisoblanadi.

"Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da qayd etilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va

mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi" deb izoh berilgan.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki, mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qaraladi. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi, innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi quyidagi tushunchalar bilan izohlanadi:

Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir.

Ixtiro – bu yangi konsepsiyalarni yaratishdan iborat.

Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini alohida ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasi bo'lib, bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma'lum birikmasidan tashkil topgan murakkab jarayonlar yig'indisi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat - to'plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlar majmui sanaladi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo'lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining asoslarini o'rganish oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonini zamonaviy psixologiya hamda pedagogika fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, bugunning yoshlari birinchidan o'ziga ishonchi bo'lsa, o'zini o'zi qadrlash darajasi yuqori bo'lsagina, ikkinchidan, esa o'z faoliyatini o'zining harakatlari natijasida rivojlantirsa, ayniqsa, ular muvaffaqiyatsizlikka uchraganda, o'zini past baholaganda, salbiy emotsional holatlarni his qilganda yaqqol sezilar ekan. Bunday ikki toifadagi yoshlar o'ziga xos tarzda o'zini o'zi anglash yo'llari, usullari va shakllarini qidiradi.

Talaba-yoshlar o'rtasida shaxslararo munosabatlar va hayot bo'lgan qiziqishlarini o'rganish maqsadida olimlar tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalarga ko'ra, 1853 nafar ishtirokchilar o'z baxtini nimada ko'rmoqda, degan savolga ko'pchiligi o'zlarining maqsadlarini belgilagan mustahkam oila (59%), samimiy do'stlar (52%), muhabbat (50%), sevgan faoliyatidagi muvaffaqiyat (44%) deb javob berishgan.

So'rovnomadan olingan quyidagi omillar sezilarli darajada past natijani tashkil etgan. Bular moddiy ta'minot (31%), o'zining shaxsiy hayoti (20%), qadriyatlar (9%).

Mashhur yozuvchi R.Berne ta'kidlaganidek, "Bizning baxtsizliklarimizning siri shundaki, bizning baxtli yoki baxtsizligimizni o'ylash uchun juda ko'p bo'sh vaqt bor" deb yozgan edi.

Talaba-yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirish jarayonining psixologik shartlari quyidagilardan iborat:

ilmiy va innovatsiya asoslarini o'rganish jarayonini faollashtirish;

yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirishning zamonaviy hamda yangi usullarini izlash;

o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash jarayonini takomillashtirish.

Amerikalik mashhur psixolog N.Rodgers o'z tadqiqotlarida munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, shaxslararo munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorgarlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy-psixologik munosabatlarning tasnifi masalalari o'rganilgan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik olimlardan biri K.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

Rus psixologi V.A.Petrovskiyning olib borgan tadqiqotlarida yoshlarda faoliyat davomida kutilmagan noodatij, moslashmagan holatlar borligini aniqlagan. Bu esa hayotiy muammolarni anglash va hal qilishning yangi bosqichiga olib chiqishi hamda ijodkorlik, kognitiv jarayonlarning faol shaklida namoyon bo'ladi – deb ta'riflaydi.

Tadqiqotchi I.Stepanovanning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi.

B.Santoning fikriga ko'ra, innovatsiya - bu yuqori sifatli barcha sohalar uchun yaratiladigan texnologik jarayonlar deb ta'riflaydi.

Masalan, M.V.Volinkina innovatsion faoliyatni yangi bilimlarni olish va uni ta'lim bozorining boshqa ishtirokchisi tomonidan amalga oshirish bilan bog'liq biznes faoliyati deb tushuntiradi. Olimning fikricha, innovatsion faoliyatning zarur tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- yangi texnologiyalarni yaratish uchun bilimlardan foydalanish;
- yangi bilim olish;
- innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish.

Aksariyat hollarda shaxslararo munosabatlar ilmiy va innovatsion faoliyatning asosi sifatida qaraladi. Ya'ni yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga yo'naltirishda ularning ijtimoiy muhiti ham ma'lum bir darajada ahamiyat kasb etadi.

Olimlar V.Y.Lyudis va N.R.Yusufbekova tadqiqotlarida innovatsion faoliyatni jarayon sifatida qaraladi. Buning natijasida mavjud madaniyatda ijtimoiy sohaga ham tegishli innovatsion o'zgarishlar yuz beradi. "Innovatsiya" tushunchasi ular tomonidan ham yangilik, ham ushbu yangilikni amaliyotga joriy yetish jarayoni sifatida belgilanadi. Shulardan kelib chiqib, innovatsiya va yangilik tushunchasini ko'pgina ilmiy adabiyotlarda farqlash asosiy g'oya sifatida qaraladi.

Innovatsion ijtimoiy texnologiyalar - bu innovatsion faoliyat usullari, jamiyatda innovatsiyalarni yaratish va moddiylashtirishga, ijtimoiy hayotning turli sohalarida sifat o'zgarishlariga hissa qo'shadigan, jamiyatdagi moddiy va boshqa resurslardan maqsadga muvofiq foydalanishga olib keladigan tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan usullardir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy sohadagi innovatsiyalarning asosiy maqsadi zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muammolarini hal qilishdir. Ijtimoiy munosabatlardagi innovatsion faoliyat aholining ijtimoiy muammolarini hal qilishning yangi, yanada samarali va arzon usullarini topish zarurati bilan bog'liq.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion ta'lim» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi XX asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan.

Xususan, V.V.Belous, F.E.Vasilyuk, O.Y.Zotova hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan

ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

“Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega.

Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

yangi g'oyalar;

tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;

noan'anaviy yondashuvlar;

odatiy bo'lmagan tashabbuslar;

ilg'or ish uslublari.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” va ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida fikrlar mavjud.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa, u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra, novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Bu farqni quyidagi 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

1-jadval.

Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;
2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;	2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) metodlar yangilanadi;	3) subyektlarning faoliyati to'la yangilanadi;
4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi.	4) yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
	6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Olimlarning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

pedagogik nazariyaning o'zgarishi;

o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;

o'quvchi (talaba) faoliyatining yangilanishi;

pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;

ta'lim mazmunining yangilanishi;

o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;

ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;

ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

Tadqiqotchi R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida ta'riflaydi. N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlaydi.

Bu o'rinda muallif innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko'rsatadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (m: korxonalar, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko'lamda ishlab chiqish. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko'ra, pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko'p subyektli (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi). Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarini yechishga qaratilgan faoliyat.

Tadqiqotchi M.Jumaniyozovni e'tirof etishicha pedagogik innovatsion faoliyat quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Mazmun-mohiyatiga ko'ra, innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, obyekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi. Subyektiv yangilik ma'lum obyektning o'zini yangilash zaruriyatini ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan obyekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat

qiladi. Shartli yangilik esa munosabat, obyekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, talaba-yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun ularda zarur bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantirish, emotsional jihatdan barqarorlik, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining ustunligi, hissiy-irodaviy sifatlarning yetarli darajada shakllanganligi ta'sir qilishi aniqlandi. Shunigdek, ilmiy-innovatsion faoliyatning rivojlanishida kasbiy yetuklik va turli xildagi muammolarni hal qilish muvaffaqiyatini belgilaydigan motivatsion, kognitiv, operativ, maqsadga yo'nalganlik, mustaqil fikrlash, va kommunikativ omillardan iborat ekanligi asoslandi.

Talaba-yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyati rivojlanishi o'quv motivatsiyalari integratsiyasining ta'sirini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish natijasida ilmiy-innovatsion faollik sifatleri pedagogik-psixologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyor ekanligini belgilashda indikativ ko'rsatkichlardan motivlar, kasbga yo'nalganlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangiliklarni izlab topish va kiritish, innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish, o'z-o'ziga baho berishning zarurligi sababli, ilmiy-innovatsion faoliyatga yo'nalganligini aniqlash bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi. Olib borilgan empirik natijalar tahliliga ko'ra, talabalarni ilmiy-innovatsion faoliyatga yo'naltirishda metodologik yondashuv, nazariy yondashuv, psixologik yondashuv, faoliyatli yondashuvlardan foydalanib, ularda tashabbuskor fikrlash, tanqidiy fikrlash, boshqaruvchan fikrlash, amaliy fikrlash va kreativlik sifatlarini shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida. PF-60-son Farmoni. 28 yanvar, 2022 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3899-son Qarori. 8 avgust, 2018 yil.
4. Берне Р. Развитие "Я – концепции" и воспитание: Пер. С англ. - М., 1986.
5. Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив. - М.: Знание, 1982. - 255 с.
6. Роджерс К.Р. // Клиент-центрированная психотерапия. - М.: Апрель Пресс, Издательство ЭКСМО-Пресс, 2002.
7. Бойко В.В. Синдром "Эмоционального выгорания" в профессиональном общении. Монография. - СПб.: Питер, 1999. - 105 с.
8. Nazarov A.M. talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi: Psixol.f.d. dissertatsiyasi: –T.: TDPU. 2022 y. – 229 b.

Ostanov Shuhrat Sharifovich

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti

p.f.f.d, (PhD) dotsent

DESTRUKTIV XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada destruktiv xulq-atvorli o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik determenantlari, o'smirlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini nazariy va amaliy jihat shuningdek o'smirlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan, psixodiagnostika, psixokonsultatsiya va psixologik trening dasturi ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi bo'yicha nazariy ma'lumotlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'smir, xulq-atvor, destruktiv, shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishi, agressiya, depressiya, psixokorreksiya, psixokonsultatsiya, diagnostika.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ С ДЕСТРУКТИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические детерминанты развития креативности у подростков с деструктивным поведением, теоретический и практический аспект деструктивной поведенческой психокоррекции у подростков, а также теоретический и практический аспекты деструктивной поведенческой психокоррекции у подростков, разрабатываются методические рекомендации и рекомендации по разработке программы психодиагностики, психоконсультации и психологического тренинга. Выявлены теоретические данные по психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков.

Ключевые слова: подростковый, поведенческий, деструктивный, становление и психическое развитие личности, агрессия, депрессия, психокоррекция, психоконсультация, диагностика.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH DESTRUCTIVE BEHAVIOR

Abstract. This article analyzes the psychological determinants of the development of creativity in adolescents with destructive behavior, the theoretical and practical aspect of destructive behavioral psychocorrection in adolescents, as well as the theoretical and practical analysis of destructive behavioral psychocorrection in adolescents, developed guidelines and recommendations for the development of psychodiagnostics, psychoconsultation and psychological training program. Theoretical data on destructive behavioral psychocorrection has been revealed in adolescents and adolescents.

Key words: adolescent, behavioral, destructive, personality formation and psychic development, aggression, depression, pspsychocorrection, psychoconsultation, diagnostics.

Kirish. Respublikamizda rivojlangan huquqiy-demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir. Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari

hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda, yoshlar tarbiyasi masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Biz uchun,-deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, - o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu-farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir. Ayniqsa, dunyoda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas".

Hozirgi globallashuv jarayonida shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan saqlanish, har bir kishi ongida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, yoshlarni destruktiv guruhlar ta'siridan asrash, jamiyatimizdagi har bir fuqaro ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, xavfsizlikni ta'minlashda antimanipulyativ, assertiv xulq-atvorni tarkib toptirish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Bu esa kelajakda shaxs xavfsizligi, qolaversa, jamiyat hamda davlatning xavfsizligini ta'minlanishda garov vazifasini o'taydigan omillardan hisoblanadi.

O'smirlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini psixologik tadqiq etish orqali ularni turli guruhlar, oqimlarga kirishining oldini olish, shuningdek, destruksiya tufayli oila, ta'lim muassasasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar, suitsid, va boshqa jinoyatlarning oldini olish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Xorij va sobiq ittifoqda bir qator soha mutaxassisleri yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik, giyohvandlik va alkogolizm kabi illatlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning oldini olish, shaxsda antimanipulyativ, assertiv xulqni shakllantirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. E.Bern, D.Karnegi, E.Shostrom, A.Maslou, P.M. Granovskaya, F.V. Bassin, V.N.Myasihev, K.E.Igoshev, L.M.Zyubin, A.Buryak, Ye.N.Volkov, Ye.V.Zaika, B.T.Kondrashchenko, E.B.Melnikova kabi bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida destruktiv guruhlar faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni tadqiq etishga harakat qilganlar. V.P.Sheynov, V.B.Shapar, I.Vagin, N.N.Kozlov, S.G.Kara-Murza, Sh.F.Mustafaeva kabi Rossiya va O'zbekiston psixolog olimlarining ta'kidlashlaricha, shaxs ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi. Ularning fikriga ko'ra, kishi ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyati orqali boshqariladi. Ijtimoiy muhitdagi nosog'lomlik esa kishi ongi va xulqida turli og'ishlarni keltirib chiqaradi. Shaxsni manipulyativ tarzda boshqarishda avvalo, ong faoliyatining o'rnini, mexanizm va qonuniyatlarini nazariy va amaliy talqin qilib, so'ng antimanipulyativ xulqni shakllantirish zarurdir.

Psixologik-pedagogik jihatdan destruktiv guruhlariga kirishga moyillik darajasi mavjud yoshlarni aniqlash, ular bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishda hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar bir qanchadir. Masalaning yana bir dolzarb jihati shundan iboratki, xavfsizlikning asosiy sub'ektlaridan birini yoshlar shaxsi tashkil etadi. Ular shaxsining xavfsizligini ijtimoiy-psixologik ji

Insonda ma'lum bir hulq atvor hislatning paydo bo'lishi va shakllanishi ma'lum bir qadriyatga moslanishi (yo'nalishi), ularga taxminiy baho berishida o'z aksini topadi. Sub'ekt ma'lum bir hislatni ongida loyihalashtirib olganidagina qadriyatga yo'naltirish haqida gap ketishi mumkin. Qadriyatga nisbatan yo'naltirishning shakllanishi ehtiyoj hamda faoliyatga moslashish orqali faollashadi. Ma'naviyat to'g'risidagi mulohaza yuritiladigan odamlarning xatti-harakatlariga e'tibor beriladi. Xuddi shu boisdan ma'naviyatning mohiyati xatti-

harakatlarda to'la aks etadi. Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, oila, mahalla va ta'lim jarayonining talablari darajasi bilan u erishgan psixik kamolat o'rtasidagi ziddiyatdan iborat bo'lib, ushbu qarama-qarshiliklar uni hulq atvor tasavvurlarining tezkor o'sishi orqali bartiraf qilinadi.

Tahlil. Tasavvurlar shakllanishining eng jadal darajasi ilk o'spirinlik yosh davriga to'g'ri keladi. Unda borliq haqida bilimlar tizimi shakllangan bo'lib, muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa va ob'ektlar haqida aniq tasavvurlar mavjud bo'ladi. Bu tizimda shaxs uchun o'ta muhim elementlar bo'lib, shaxsning boshqa tasavvurlari ana shu muhim elementlar atrofida uyg'unlashib boradi. Bu daraja tasavvurlarning ob'ektivligi bilan xarakterlanib, ular shakllanishi jihatidan ijtimoiy tabiatga ega bo'ladi. Xuddi shu ma'noda hulq atvor tasavvurlar yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlardir.

«Hulq atvor tasavvur» shaxsning umumiy tasavvurlari tarkibida bo'ladi. Tasavvur – shaxsning atrof borliq to'g'risidagi bilimlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq hodisalar tizimi. U yoki bu obyekt yoxud hodisa bilimning yo'qligi tasavurning ham yo'qligidan darak beradi. Hulq atvor tasavvurlar «ma'naviyat» tushunchasi bilan uyg'unlashib, jamiyatning, millatning hamda aynan shaxsning ichki ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchdir.

Hulq atvor tasavvurlar – shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs «ma'naviyat» tushunchasi atrofidagi barcha hodisa va ob'ektlarni tushunadi va ularga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantirgan bo'ladi. Ular ijtimoiy bo'lgani uchun ham «ma'naviyat»ning deyarli barcha sohalarini: Vatan taqdiri bilan o'zini bog'lash, o'z Vatani tarixi bilan faxrlana olish, fan, din, diniy va milliy qadriyatlar, an'analar, insoniyat yaratgan hulq atvor durdonalar haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsning eng muhim afzalliklaridan biri – uning tashqi muhitni bilishi, turli vaziyatlarda unga moslanish hamda adekvat maqbul hulq-atvor normalarini o'zida tarbiyalay olishidir. Chunki inson jamiyatning ijtimoiy va madaniy yutuqlarini bilishi va qadrlashi, ularni ruhan va aqlan xis qila olishi kerak. Bu narsa unga o'z zamonasini to'g'ri idrok qilish va tushunish imkoniyatini berib, shaxs tasavvurlari dunyosini egiluvchan va sermazmun qiladi. Shundan mantiqan kelib chiqib, biz hulq atvor tasavvurlar yaqqol shaxsni aniq vaziyatlarda, jamiyatdagi qadriyatlarga nisbatan tutadigan hulq-atvori, xatti-harakati uchun go'yoki yo'naltiruvchi va moslashtiruvchi mezon rolini o'ynashi bilan ahamiyatlidir.

Hulq atvor tasavvurlar ijtimoiy tasavvurlarning bir tarmog'i bo'lib, u qotib qolgan ma'lum kognitiv narsalar emas, balki ular doimiy rivojlanishda, harakatda va taraqqiyotda bo'ladi. Uning dastlabki bosqichi idrok qilish bosqichi bo'lib, unda bevosita ongda aks etadigan ma'lumotlar qabul qilinishi, ular anglanganlik va shaxs uchun zarurat nuqtai nazaridan saralanishi ro'y beradi. Undan so'ng ikkinchi bosqich – assotsiativ bog'lanishlar bosqichi ro'y beradi, ya'ni bunda ongda yangi xabarlar eskilar bilan solishtirilib, assotsiativ va hulq atvor bog'lanishlar o'rgatiladi. Yuqoridagi ikkinchi bosqichning umumiy xususiyati umumlashtirish– generalizatsiyadir. Keyingi bosqichlar ko'proq tafakkur va tushunchalar sohasiga taaluqli bo'lib, unda har bir ma'lumot yoki xabar differensial holda individ uchun ahamiyatlilik nuqtai nazaridan ajratiladi va shu asosda ma'lum ustanovkalar shaklida shaxs hulq-atvori yo'nalishini belgilaydi.

Xulosa. O'smirning o'z taqdirini o'zi belgilash va hayotdagi maqsadini aniqlash zarurati bilan bog'liq. Bu intilish va ehtiyojlardan mahrum bo'lish yosh davrlari psixologiyasida me'yor doirasida ko'riladigan inqirozni, ayrim hollarda esa, psixiatriya sohasiga doir psixologik hulq-atvor ko'rinishlarini vujudga keltirishi mumkin. Shunday qilib, biz ko'rayotgan o'smirlik davriga fizik va psixik taraqqiyot darajasi va sur'atlarda ijtimoiy munosabatdagi anomal hulq-atvor ko'rinishlarini vujudga keltiruvchi ziddiyatlar bilan ifodalangan eng yuqori nomutanosiblik xos bo'lib, bu ma'suliyatli davr psixolog, sotsiolog va shifokorlar- psixiatr va psixogigienistlar tomonidan katta e'tibor talab qilishga loyiq. Agarda o'smirda bunday keskin davrda “o'zligini topish”da, yangi manfaatlardan xabardor bo'lishda aql, nazokat bilan yordam berilmasa, kattalar bilan normal munosabatlarni o'rnatishning eng to'g'ri yo'llari topilmasa,

unda “o‘smirlik me’yori”dan chetga chiquvchi nomaqbul xatti-harakatlar va xulq-atvor reaksiyasi yuzaga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Андреева Г.М. «Социальная психология» М. 2005. – С.224.
2. Анохин Р.К. «Системные механизмы высшей нервной деятельности». М.: Наука, 1978. – С.134.
3. Дон Миллер «Как победить страх» М. 1950. – С.221.
4. Загайнов Р.М. «Психолог в команде». М.:ФиС. - 1984. – С.376.
5. Короленко Р. «Психофизиологическая адаптация к экстремальным условиям». Харьков. 1998. – С.142.
6. Мерлин В.С. Лекция по психологии мотивов человека. 1971– С. 46.
7. Rasulov A.I. «Psixodiagnostika» T. 2010. – B.105.

Miralimov Mirjamol Yuldashevich
Buxoro viloyat IIB boshqarmasi boshlig'i, polkovnik

VOYAGA YETMAGANLARDA JINOYAT MOTIVLARINING SHAKLLANISHIGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hamda o'smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishida salbiy omillardan himoya qiluvchi zamonaviy-psixologik mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari voyaga yetmagan o'smirlarda jinoyat motivlarini shakllanishiga doir o'zbek va xorij olimlari olib brogan nazariy hamda amaliy faoliyat natijalari o'rganilgan. Shuningdek o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma ishlab chiqilgan va natijalar tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, voyaga etmagan shaxslar, zamonaviy-psixologik mexanizmlar, jinoiy xulq motivatsiyasi, psixokorreksion tarbiya, huquqiy ong, individuallik, demografik guruhlar.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕСТУПНЫХ МОТИВОВ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Аннотация. В данной статье разработаны психологические факторы, влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних, а также современные психологические механизмы защиты от негативных факторов формирования преступных мотивов в поведении подростков. Кроме того, изучены результаты теоретической и практической деятельности узбекских и зарубежных учёных по формированию преступных мотивов у несовершеннолетних подростков. Также разработана социально-психологическая анкета, направленная на выявление коренных причин и сущности формирования преступных мотивов у подростков, проведён анализ результатов.

Ключевые слова: поведение, несовершеннолетние личности, современные психологические механизмы, мотивация преступного поведения, психокоррекционное воспитание, правосознание, индивидуальность, демографические группы.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES IN MINORS

Abstract. This article develops psychological factors that influence the formation of criminal motives in minors, as well as modern-psychological mechanisms that protect against negative factors in the formation of criminal motives in adolescent behavior. In addition, the results of theoretical and practical activities brogan conducted by uzbek and foreign scientists on the formation of criminal motives in underage adolescents have been studied. Also, a socio-psychological questionnaire was developed, aimed at determining the root causes and essence of the formation of criminal motives in adolescents, and an analysis of the results was carried out.

Key words: behavior, minor persons, modern-psychological mechanisms, motivation of criminal behavior, psychocorrectional upbringing, legal consciousness, individuality, demographic groups.

Kirish. Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni

belgilab ularga oqilona yechim topish va natijalarni to'g'ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan "Bolalar huquqi to'g'risidagi Deklaratsiya"da bolalarga jismoniy va ma'naviy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi", "gunoh qilgan bola to'g'ri yo'lga solinishi", "og'ir damlarda bola mehr ko'rib voyaga yetishi va himoya qilinishi" ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida "bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo'layotgani, o'qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'layapti? Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat" degan edilar. Shuningdek, jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarida "profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ishlovchi mas'ul xodimlar va jamoatchilik vakillari uchun yoshlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan ishlash bo'yicha axborotnomalar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish" kabi vazifalar belgilanib, bu borada o'smirlarda huquqbuzarlik va jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasining samarali metodikalarini aniqlash, tashkiliy chora-tadbirlar mazmuni, hamda barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan va jinoyat motivlarining oldini olishga qaratilgan ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Voyaga yetmagan o'smirlar xulqi og'ishganligi muammosi bo'yicha turli soha vakillari, jumladan faylasuflar, sosiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar B.G.Ananyev, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasixev, I.P.Pavlov, QQPlatonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay va boshqalar o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot obyektiga aylantirganlar va ma'lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, Sh.R.Barotovlar, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda o'smirlar hulqi og'ishganligining ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lsada, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun o'ziga xos qiyosiy tipik xarakterga ega bo'lgan xulq og'ishganligi ko'rsatgichlarini tadqiq qilish masalasi alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida ko'rib chiqilgan.

Bu muammolar yechimiga ilmiy psixologik nuqtai nazardan yondashsak, axir, har qanday xatti-harakat (va hatto harakatsizlik) deyarli har doim o'z motiviga ega. Unda motivatsiya nima? Bu savolga ilmiy va asosli javob topish uchun jahon psixologiya fanida motiv va motivatsiya muammolari qanday tadqiq etilganligini tizimli o'rganish maqsadga muvofiqdir. Motiv va motivatsiyaga doir nazariyalarni o'rganar ekanmiz, bu tushunchaning aniq mazmuniy mohiyatini yoritish zarurati yuzaga keladi.

Chet el psixologiyasida motivlar va motivatsiyani o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud bo'lib ular jahon psixologiyasiga qo'shilgan katta hissadir.

G'arb psixologiyasida motivatsiya muammolari dastlab Spinoza, Gobbs, Dekart asarlarida o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Ushbu masalalar bilan assosionistik, introspektiv, bixeviorizm, geshtalt psixologiya, psixoanaliz kabi psixologiya maktablarining namoyandalari keng ko'lamda shug'ullanganlar (U.Djeyms, E.Tolmen, K.Xall, K.Levin, 3.Freyd va boshqalar).

Aslida, psixologiyada motiv (nemischa-“motive”, fransuzcha-“motif”, lotincha-“movere” soʻzidan kelib chiqadi)- harakat qilaman degan maʼnoni anglatadi. Zamonaviy psixologiyada motivatsiya atamasi subʼyektning faollikka undovchi yoki faolligini taʼminlovchi kuch sifatida ishlatiladi. Motivatsiya ehtiyoj va instinktlarga, ehtiros va hissiyotlarga, munosabat va ideallarga mazmun bagʻishlaydi.

Motivatsiyaning bir necha taʼrifi mavjud:

Motivatsiya-bu harakat qilishga undovchi kuch;

Motivatsiya - har qanday faoliyat orqali insonning ehtiyojlarini qondirish qobiliyati;

Motivatsiya - bu insonning xatti-harakatini boshqaradigan va uning faoliyatini tashkiliy yoʻnaltirishni, barqarorligini belgilaydigan dinamik psixofiziologik jarayon.

Motiv bu gʻoyaviy-maʼnaviy yoki moddiy obʼyektga yoʻnalgan harakatlar boʻlib, uning muvaffaqiyati faoliyatning barqaror maqsadi va mazmundorligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda motivatsiya konsepsiyasiga munosabat turli olimlar tomonidan turlicha farqlanadi. Kimdir motivatsiyani inson faoliyatini yuzaga keltirgan jarayonlarning toʻplami deb mulohaza qiladigan boʻlsa, boshqalari motivatsiyani maqsadga erishishga yoʻnalgan harakatlarning bir qismi deb baholaydi.

Baʼzi nazariy tahlillarda motiv tez-tez ehtiyoj yoki maqsad bilan aralashib ketganligini kuzatamiz, ammo ehtiyoj bu noqulaylikni bartaraf etishga qaratilgan anglangan kechinmadir. Motiv - maqsadni belgilashning ongli jarayonidir. Misol uchun, ochlik ehtiyojini yuzaga keltiradi, ovqatlanish xohishi bu motivdir. Odamning qoʻli yetadigan, foydalanishga moʻljallangan mavjud oziq-ovqat esa maqsad hisoblanadi.

Motivatsiya yoki motiv oʻzining xilma-xilligi bilan farqlanuvchi murakkab psixologik hodisa hisoblanadi.

Motivatsiya nazariyasini oʻrganish va insonning ehtiyojlarini tahlil qilish, ularning mazmuni va uning motivatsiya bilan qanday bogʻliqligini aniqlash hamda ular odamni muayyan faoliyatga nimaga undashi kerakligini tushunish mazkur muammoni ilmiy asoslash va yechimini topishga yordam beradi. Ushbu ehtiyojlarni oʻrganish uch asosiy yoʻnalishning paydo boʻlishiga olib keldi:

- motivatsiyaning tayanch (muhim) nazariyalari;
- motivatsiyaning prosessual nazariyalari;
- insonlarning oʻziga xos qiyofasini oʻrganishga asoslangan motivatsiya nazariyalari.

Z.Freyd motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv - bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

G.Ollport inson motivatsiyasi mohiyatini ochishda shaxsning shakllanishi va ijtimoiy mohiyatiga yoʻnaltirilgan yondashuvni tatbiq etish gʻoyasini ilgari suradi. Uning oʻzini-oʻzi namoyon qilish nazariyasida shaxs motivatsiya subʼyektini tariqasida tahlil qilinadi. Oʻzining shaxs konsepsiyasida shaxsni "ochiq tizim" sifatida talqin qilib, motivni quyi (biologik ehtiyoj) va yuqori (maʼnaviy rivojlanish) darajalarga ajratadi. Ollport motiv shaxsda oʻzak ekanligini taʼkidlaydi, lekin maʼnaviy motivlarni ijtimoiy - tarixiy sharoitlar bilan uzviy aloqasi mavjudligini biroz diqqat -eʼtibordan chetda qoldiradi.

Nil Miller oʻz tadqiqotlarida motivatsiya muammosiga alohida eʼtibor bilan qarab, maqsadga subʼyekt qanchalik yaqinlashsa, unga erishishga yoʻnalganlik shunchalik kuchayadi: stimullarga subʼyekt qanchalik yaqinlashsa, unga ziyon keltirishdan chekinish, diskomfort hissa shunchalik ortadi. Noxush holatlardan chekinishning ifodalanganligi ehtiyojning kuchiga bogʻliqdir. Uning fikricha, motivatsiya nazariyasi quyidagi koʻrinishga ega: ehtiyoj - kodlashish - mustahkamlanish. Ehtiyoj faollikni keltirib chiqaradi, agarda javob mustahkamlanmasa, u holda uni chiqarib tashlash tendensiyasi hukm suradi. Mabodo javob mustahkamlansa, puxtalashtirilsa, javob bilan kod oʻrtasida aloqa va mazmun-mohiyat tezroq vujudga keladi. Nazariyaning negizida ehtiyoj tizimi - kod - javob - mustahkamlash yotadi.

Amerikalik psixologlar Leyman Porter va Edvard Loulerlarning motivatsiya toʻgʻrisidagi kompleks nazariyasi Broomning kutish nazariyasi va Adamsning adolat nazariyasi

elementlarini o'z ichiga olishi bilan xarakterlanadi. Ushbu modelda beshta parametr mavjud: sarflangan kuch, aql idrok, olingan natijalar, mukofot va qoniqish darajasi. Ushbu nazariyaga ko'ra, natijalar insonning yo'nalgan xatti harakatlariga, qobiliyatlari va insoniylik xususiyatlariga, shuningdek, uning o'z o'rnini (mavqeini) aniqlashga bog'liqdir. Ish kuchi darajasi mukofotning qiymatini va amalga oshirilgan harakatlar muayyan mukofotni olib keladigan ishonch darajasini belgilaydi. Bu yerda ham inson o'z ehtiyojlarini muayyan natijaga erishish uchun mukofot bilan qondiradi.

Agar Porter-Louler nazariyasining barcha tarkibiy qismlari batafsil o'rganib chiqilsa va tahlil qilinsa, unda yanada yuqori darajada motivatsiya mexanizmini tushinish imkoniyati yuz beradi. Biror kishining sarflagan sayi-harakatlari unga yutuqqa erishishning qanchalik qimmatli bo'lishiga va insonning munosabatlariga bo'lgan ishonchiga bog'liq. Biror kishining muayyan natijalarga erishishi, unda qoniqish va o'z-o'zini hurmat qilishini ta'minlaydi.

Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab - oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan moddiy tizimning oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish inson shaxsiga motivasion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafosat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televideniye va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi.

Muhokama va natijalar tahlili. Avvalo shuni aytish kerakki, biz o'rganayotgan muammo doirasida ayrim olimlar tomonidan ko'pgina metodikalar milliy-madaniy muhitda qo'llanilgan bo'lsa-da, lekin ular foydalangan metodlar psixologik tadqiqotlar uchun yetarlicha axborot bera olmagan.

O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostik va psixokorreksion qonuniyatlarini chuqurroq, obyektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik.

O'smirlarni o'zini tutishi, odamlarga, voqea-hodisalarga, narsalarga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi va tarbiyalanganlik darajasini o'rganishga yo'nalgan kuzatish, taqqoslash, suhbat, ular faoliyati natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanish mumkin. IPS (ijtimoiy psixologik so'rovnoma) tuzish va o'smirlarning motiv va motivatsiyasi, xususan, ularda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-biologik, moddiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatli omillar va qonuniyatlar o'rganish mumkin.

Dastlab, biz o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS)ni tayyorladik va undan foydalandik (mualliflar: prof A.Nazarov va tadqiqotchi M. Miralimov).

O'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) quyidagicha ilmiy-uslubiy tuzilishga ega. «Quyida sizga berilayotgan savollarga o'ylab, o'zingiz aynan to'g'ri deb bilgan sabab va omillarga tayanib aniq javob berishingizni (munosabat bildirishingizni) so'raymiz. Javoblaringiz hayotiy va real voqelikka asoslanib, ilmiy nuqtai nazardan baholanadi».

Tadqiqot uchun o'rganilayotgan (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7- jadvallardagi) o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etadigan muhim sabablar, omillar va manba'larni aniqlash uchun o'smirlar va ularning tarbiyasi uchun mas'ul kishilar tomonidan omillarning ahamiyatiga qarab tanlanishi aytiladi. Ular tomonidan tanlanganlik darajasi (o'rni) 1-o'rin (maksimal) dan 5-o'rin (minimal)gacha belgilandi. Tadqiqot o'tkazilgandan so'ng yoshlarda uchrayotgan jinoyat xatti-harakatlar manba'larini aniqlash uchun yoki belgilarning ahamiyat darajasi (o'rni)ni aniqlash va shunga nisbatan foiz imkoniyatini chiqarish maqsadida biz quyidagi tahlil

(formula)dan foydalandik. 1-darajali deb tanlangan belgilar 5 imkoniyatga, 2-darajalilar 4 imkoniyatga, 3-darajalilar 3 imkoniyatga, 4-darajalilar 2 imkoniyatga, 5-darajalilar 1 imkoniyatga ega ekanligini belgiladik.

1-jadval.

O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari n=150

№	M A N B A L A R	Tanlov natijalari	
		O'rin	Foiz
1.	O'smirlardagi mavjud ehtiyojlarning qondirilmay qolishi ta'sirida	1	87,8
2.	Hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadida	2	80,9
3.	Tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqeini saqlash va barqarorlashtirish maqsadida	3	70,5
4.	O'zini namoyon qilish, o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish uchun	4	72,6
5.	«Kuchlilik»ni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida	5	63,3

Ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) o'smirlar xulq-atvorini aniqlash va atroflicha o'rganishga yo'naltirilgan savollardan tarkib topgan bo'lib (1-jadval), ularning hayoti va faoliyatida ko'proq qaysi motivlar (xususan jinoyat motivlari) yetakchilik qilishi aniqlandi. So'rovnoma shunday tuzilganki, uni tashkil etgan savollar yordamida inson mohiyatini, uni shaxs sifatida shakllanishi va taraqqiyotini ta'minlaydigan tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik omillarning ta'sir doirasini, ular o'rtasidagi qonuniyatlarning mushtarakligini, zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning ahamiyatini baholash o'rganildi.

Natijalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan o'smirlarning xulq-atvorida jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan motivlardan quyidagilar boshqa omillarga nisbatan ustunlik qilayotganligi aniqlandi.

Mazkur jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smirlarda jinoyat motivlari yuzaga kelishining sabablari, manbalari va yo'nalganligini aniqlashga doir yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi.

Biz o'rgangan respondentlar tomonidan o'smirlar (11-15yosh) xulq atvorida yuzaga keladigan jinoyat motivlarining sabablari (manbalari) ulardagi mavjud ehtiyojlarning o'z vaqtida qondirilmay qolayotganligining ta'siri natijasi (1-o'rin 87,8%), sifatida baholandi. Bunda, birinchi navbatda o'smirlarning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, o'qituvchilar va boshqa bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun mas'ul kishilar o'smirlarda kechadigan jismoniy-biologik, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik qonuniyatlarni bilishlari, shunga amal qilib yoshlar tarbiyasida doimiy nazoratda bo'lishlari, tarbiyada o'zgarishlar yoki yutuqlar bo'lganda muntazam kuzatish orqali ularni qayd qilib borishlari, o'smirlarning keyingi bosqich tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlash va to'g'ri yo'nalish olishi uchun kundalik zarur tarbiyaviy shart-sharoitlarni maslahatli va kengashilgan holda tashkil qilib takomillashtirib borishlari lozim bo'ladi.

Ana shunday tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy bosqichlarda (oilada, maktabda va mahallaguzarda) o'smirlardagi mavjud ehtiyojlarni qondirilmay qolishi yoki bu ehtiyojlarga e'tiborsizlik, loqaydlik, o'zi bo'larchilikka qoldirish ular tarbiyasida qator muammolar shakllanishiga, eng muhimi o'smirlar xulq-atvorida ulardagi mavjud qondirilishi zarur bo'lgan ehtiyojlarni "O'smirlarga xos vaziyatdan chiqish" yoki muammoni yechish maqsadida noqonuniy yo'llar bilan, jamiyatda odamlar orasida, xususan o'smirlar o'rtasida amal qilib turgan qadriyatlar, urf-odatlar va me'yorlarga (xalq psixologiyasiga) amal qilmay, jinoiy xatti-harakatlarga tayanib, ulardan foydalangan holda amalga oshiriladi (erishiladi). Bunday holatda

maqsadga osonlikcha erishish yoki noqonuniy xatti-harakatlarning tez-tez takrorlanib turishi o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga asos bo'ladi. O'smirlarda bunday chora va usullarning yuzaga kelishi, takrorlanishi natijasida sterotiplashishi (barqaror sifat va xususiyatlarga aylanishi) o'smirlar uchun hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadini motivasion tizimini shakllantiradi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimiz tahlillariga ko'ra, respondentlarning (2-o'rin, 80,9%) o'smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining muhim sabablaridan yana biri o'smirlar kundalik hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish yo'llarini o'zi belgilashidir.

O'smirlik yoshida ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyatlardan biri, bu ularning o'zini-o'zi anglashga bo'lgan e'tiborlarining kuchayishidir. Bu o'rinda o'smir o'zida mavjud bo'lgan, endi yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi kutilayotgan (orzu qilgan) xususiyatlar, sifat va fazilatlariga o'rganadi, aynanlashtiradi, nazorat qiladi, baholaydi va ulardan amaliy turmushida va faoliyatida foydalanib ko'radi. O'zidagi mavjud imkoniyat va imkoniyatsizliklarni yaqinlari, tengdoshlari va boshqa yoshlarniki bilan taqqoslaydi farqlar va imkoniyatlarni baholaydi. O'smirlardagi bu xususiyat tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqeini saqlash va barqarorlashtirish choralari ko'rishni taqozo etadi. Tadqiqotlarimizda o'rganilgan o'smirlarga xos ana shunday xususiyatlar ham ular xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishiga muhim sabab sifatida ta'sir qilishi aniqlandi (3-o'rin 70,5%).

O'smirlarda xulq-atvor rivojlanishining bunday tus olishi, motivasion yo'nalganlik o'z tengdoshlari va jamoa orasida "o'zini namoyon qilish, ularga o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish" munosabat tizimini shakllantirib boradi. O'rganilgan respondentlar tomonidan o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishi uchun ana shunday xususiyatlarning mavjudligi (4-o'rin 72,6%) eng muhim sabablar sifatida e'tirof etilgan.

O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining yuqori bosqichi sifatida yuzaga keladigan "Kuchlilikni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish"ga intilish (5-o'rin 63,3%) jinoiy xatti-harakatlarga tayyorgarlik, yo'nalganlik, natijalarga erishishni ta'minlash bosqichini ham ifodalaydi.

Bu holatlar aynan shunday o'smirlar yashayotgan oilalarda ota-ona munosabatlaridagi beqarorlik, tarbiyaviy jarayonlarga yengil-yelpi qarash oqibatida tarbiyaning yaxshi kechmayotganligi, oilaning moddiy va ma'naviy taqsimotidagi kamchiliklar, uzilishlar eng muhimi, oilaviy tarbiyada loqaydlik, beparvolik, o'zi bo'larchilikka qoldirish, e'tiborsizlik holatlarining hukm surishi natijasidir.

Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra 1-jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari va yo'nalganligini aniqlash maqsadida yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi. Biz shunga tayanib, o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlashga harakat qildik. O'zbek milliy-madaniy muhitida shakllanayotgan o'smir yoshlar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari, tarbiya uchun mas'ul huquq-tartibot organlari va jamoatchilik bilan o'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

Xulosa. O'smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi muammosini tadqiq qilishda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo'llashga mo'ljallangan insonning shaxslilik xususiyatlari, motivasion yo'nalganligi, hissiy-irodaviy holatlari va individual-tipologik imkoniyatlarini hamda ularning aqliy, axloqiy-ma'naviy, huquqiy tarbiyalanganlik darajasi va dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan ijtimoiy psixologik so'rovnomalardan foydalanildi. Metodologik pozisiyalarni birlashtirish esa bugungi kun o'smirlarining xulq-atvori, motivasion yo'nalganligi, tarbiyalanganlik darajasi va tarbiyaning istiqbolli andozalarini izchilroq o'rganish imkoniyatini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent: O'zbekistan, NMIU, 2016. - 56 b.
3. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2017, - 144 b.
4. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2018, - 49 b.
5. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – М.: ЧеРо, Издательство МГУ, 1997. - 344 с.
6. Макшанов С. И. Профессиональный тренинг // Психология профессиональной подготовки. - СПб.: Речь, 1993.- 154 с.
7. Miralimov M.Y. Voyaga yetmagan shaxslarda jinoyat motivlari shakllanishining psixologik xususiyatlari //Yosh avlodning psixologik salomatligi – davlat siyosatining ustuvor vazifasi” mavzusida ilmiy – amaliy konferensiya materialllari. – Toshkent: 2023 13- noyabr. В 237-240.
8. <http://www.natlib.uz/>
9. <http://ziyonet.uz>
10. <https://www.coursera.org/>
11. <http://elearning.zn.uz/>

Rustamov Shavkat Shuxratovich

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti,
p.f.f.d (PhD)

TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENTSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK–PSIXOLOGIK DETERMINATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish hamda talabalarning innovatsion pedagogik kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari va talabalarning muloqot qobiliyatlari ulardagi kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Talabalarni innovatsion kompetenligi muammosining hozirgi holati tahlil qilinadi va innovatsiya samaradorligini ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: integrativ, personal, pedagogik amaliyot, ijtimoiy kompetentlik, innovatsion faoliyat, individuallik, metodologiya, xarakter, ijodkorlik, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, kasbiy faoliyat, global kompetentlik.

ПЕДАГОГИКО–ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества образования, а также педагогико-психологические аспекты развития инновационной педагогической компетентности студентов и коммуникативных навыков студентов по развитию у них профессиональных компетенций. Анализируется современное состояние проблемы инновационной компетентности студентов, и рассматриваются личностные качества, обеспечивающие эффективность инноваций.

Ключевые слова: интегративная, кадровая, педагогическая практика, социальная компетентность, инновационная деятельность, индивидуальность, методология, характер, творчество, социально-психологические особенности, профессиональная деятельность, глобальная компетентность.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINATES OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF STUDENTS

Abstract. This article reflects on improving the quality of education and the pedagogical-psychological aspects of the development of innovative pedagogical competence of students and the communication skills of students on the development of professional competencies in them. The current state of the problem of innovative competency of students is analyzed and personal qualities that ensure the effectiveness of innovation are considered.

Key words: integrative, personal, pedagogical practice, social competence, innovative activity, individuality, methodology, character, creativity, social psychological characteristics, professional activity, global competence.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, pedagogik va axborot texnologiyalarining zamonaviy modellarini maqsadli hamda manzilli qo'llashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada talabalarning ijtimoiy faolligiga erishish, ularda o'zini o'zi tahlil qilish, samarali muloqot, mustaqil o'zini o'zi kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha ta'lim konsepsiyasida butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish vazifasi belgilangan. Bu, o'z navbatida, bo'lajak pedagoglar faoliyatiga qo'yiluvchi

talablarni ijtimoiy buyurtmaga moslashtirishsiz amalga oshmaydi. Shu bois pedagogika yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga qadriyatli, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini amaliy yo'nalgan tarzda tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatli modellarini loyihalashning didaktik tamoyillarini aniqlashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Talabalarda ijtimoiy kompetensiyaning asosiy komponenti sifatida kreativ fikrlash, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish, innovatsion o'qitish texnologiyalari asosida ularning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyat, pedagogik mas'uliyatni tizimli shakllantirishsiz amalga oshmaydi. Shu jihatdan talabalarda ijtimoiy faollik, kommunikativlik, kasbiy madaniyatni integrativ rivojlantirish usul hamda vositalarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetensiyasi bo'yicha tadqiqotlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Assosiation for Edusational Sommunications and Teshnology – AEST (AQSh), Belfield pedagogical university (Germaniya), Sentre of insreasing to pedagogical qualifisation on base Manshesters university (Buyuk Britaniya); Shunang universiteti (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish, ta'lim oluvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari B.Mirzaxmedov, M.Djorayev, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, K.Nasriddinov, N.Azixxodjayeva, Sh.Otajonov, M.Qurbonov, A.Xusanov, M.Matnazarovalar tomonidan tadqiq qilingan. Kasbiy va amaliy kompetensiyalar, talabalarning kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari hamda ularning rivojlanganlik monitoringiga oid mulohazalar J.Tolipova, U.Inoyatov, B.Xodjayev, M.Vahobov, O.Qo'ysinov, Y.Asadov, N.Turdiyev hamda D.M.Mamatqulov ishlarida o'z aksini topgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ijtimoiy kompetentlik tarkibini ifodalash va uni shakllantirish jarayoni muammosi xorijiy nazariya hamda amaliyotida A.Amutio, A.Smit, A.Yolanda, K.Franso, L.Breeman, R.Sears, R.O.Renye, A.Maslou, S.Sho, B.Oskarsson, A.Shelton, V.I.Baydenko, A.M.Novikov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Oliy ta'lim davrida talabalarni kasbiy-ijodiy muhitga erta tayyorlash maqsadida jamiyat talablari asosida harakatlanishga o'rgatish choralarini ko'rish muhim masala hisoblanadi. Qanchalik bu choralar tizimli va samarali texnologiyalarga asoslansa, shunchalik talabalarning pedagogik jamoaga uyg'unlashib ketishi, ya'ni kasbiy amaliyotni qulay tashkil etishga, pirovardida ta'lim sifatiga erishiladi. Talabalarning nafaqat kasbiy faoliyat davrida, balki oliy ta'limda ham turli ijtimoiy munosabatlarda qaror qabul qilish, o'z fikrini etkazish, pedagogik nizolarda psixologik bosimsiz, qulay murosaa yo'li bilan chiqib ketish kabi ijtimoiy ko'nikma va malakalarga ehtiyoj sezishi kuzatilmoqda. Aynan ijtimoiy ko'nikma va malakalar negizida ijtimoiy kompetentlik tarkib topadi.

Tahlil va amaliy natijalar. Rivojlangan mamlakatlardagi eng ilg'or ta'lim markazlari (Senter for Sreative Leadership Sourses, IEDP, MOOS, SPS)da ijtimoiy kompetensiya, kreativ va kommunikativ qobiliyatlarni muhim sifatlar qatorida alohida e'tirof etilmoqda. Jumladan, zamonaviy shaxsda kreativlik, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativlik, o'zgaralar bilan muomala qilishning turli xil variantlari (verbal, written, nonverbal)ga tayyorlik kabi ijtimoiy ko'nikma va malakalar bo'lishi kerakligi aniqlangan. Bu esa, oliy-pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish, ularda moslashuvshanlik, dinamiklik,

o'ziga xos ijodkorlik va ijtimoiy faollik hamda innovasion faoliyatga yo'nalganlikni shakllantirishni taqozo etadi. YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida - sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini yuqori darajada egallashga imkon beruvshi qulay ta'lim muhitini yaratish ko'zda tutilgan. Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini oshirish, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, o'zini-o'zi baholash, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Oliy-pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish jarayonini tashkil etishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

1-jadval.

Oliy-pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik mexanizmlari

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish	
1	Kasbiy fanlar bloki mazmunini rivojlantirishda ish beruvchilar ehtiyojlariga e'tibor qaratish, ya'ni amaliy yo'nalgan kompetentli yondashuv
2	Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari asosida o'qitishning mazmunini doimiy ravishda axborotli-didaktik tarzda takomillashtirib borish
3	O'quv fanlari integrasiyasini ta'minlash va kasbga yo'nalganligini nazorat qilishning innovatsion va shaxsga yo'nalgan instrumentlarini joriy etish
4	Bo'lajak mutaxassislarda zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan texnologiyalarni kasbiy amaliyot bilan bog'liq ravishda modellashtirish
5	Ehtiyojga asoslangan ta'limning turli shakllaridan samarali foydalanish

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini aniqlash va joriy etish borasidagi ishlarni kushaytirish, avvalo, pedagogika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalar va tavsiyalarining hayotiyiligi hamda natijadorligiga ham bog'liqdir.

Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik tuzilishi bir nechta bosqichga ajratiladi:

• **Birinchi bosqich** – motivatsion refleksiv bosqich bo'lib, talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlar zaruriyatining ongli his qilinishi va maqsad, vazifalarni aniq ko'rsatishi lozim. Bunda talabalar ijtimoiy faoliyat, tashabbus va "Ijtimoiy kompetentlik"ning asosiy mazmuni bilan tanishadi va ular tomonidan o'zlashtirilayotgan fan sintez qilanadi. Bu bosqichning birinchi qadami – ta'lim oluvchilar motivatsiyasi. Bu maqsadda talabalarga ekologik jarayonlarni ongli anglashilishi uchun muhit yaratiladi Bu bosqichdagi tahliliy pedagogik laboratoriyalar mazmuni shundan iboratki, hayotiy jarayonlarni loyihalash (hayotiy tajriba hosil qiluvshi hayotiy voqealar, jarayonni loyihalash – ta'lim beruvshi va tahsil oluvshi o'rtasidagi ta'limiy dialoglar, ta'limni kundalik hayotiy faoliyatga yaqinlashtirish orqali, o'rganilayotgan materialning hosil qilinayotgan madaniyat bosqichlari sifatida shakllanishi, hayotdagi qadriyatlarni anglash orqali o'z "meni"ning hosil bo'lishi va atrof- muhit bilan muvozanatli munosabatga kirisha olishi).

• **Ikkinchi bosqich** – reproduktiv – ta'limiy. Ilmiy ijtimoiy bilimlarni amaliy tajribalar orqali rivojlantirish. Ilmiy ijtimoiy bilimlar tajribada asoslanishi bilim, ko'nikma va malakalarni yanada mustahkamlab, kompetentlik darajasiga yo'naltiradi. Loyiha bilan ishlash algoritmini egallash jarayoni ijodkorlik faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'zgaruvchan dunyoda kerakli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Loyihalashning nazariy qismida quyidagilar qo'llaniladi.

• **Ushinchi bosqich** – konstruktiv. Bu bosqichda talabalar o'zlarining "metodlarini" namoyish etadi. Konstruktiv bosqichda shaxsning ijtimoiy psixologik - dunyosi yoritib beriladi.

Taqdim etiladigan loyiha qaytadan ijodkorona ishlab chiqiladi. Talabalar guruhida mavzular turlicha bo'lishi mumkin, ammo tizim hosil qiluvchi asos yagona.

• **To'rtinchi bosqich** – talaba shaxsi ijtimoiy kompetentligini shakllanishi va rivojlanishi. Bu bosqichning o'ziga xosligi, talaba shaxsi o'z dunyoqarashida dunyo bilan yaxlitlikni his qila boshlaydi. Bu bosqishda talabalar tomonidan refleksiv texnologiyalar, axborot va kommunikatsion texnologiyalar, fasilatsion texnologiyalarni amalda qo'llash va bu texnologiyalarning samarasini ko'rish imkonini beradi.

Bo'lajak kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli kompetentli pedagog portreti qator sifatlarini o'zida mujassamlagan bo'lib, u asosan quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: aniq fan va amaliyot sohasi bo'yisha bilimlari va tajribaga ega bo'lishi; kasbiy faoliyat jarayonida ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi; kuzatuvchan – o'quvchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg'ab olish; tashqi va ichki muhit bilan aloqa o'rnatish; ilmiy – tadqiqot sohasi faol; muloqotga kirishuvchan. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda OTM da bu yo'nalishda metodik ishlarning maqsadli yo'lga qo'yilishi, didaktik ta'minot darajasiga bog'liqdir.

Pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning asosiy komponentlari quyidagilar:

1. **Erkinlik va ijodiy barqarorlik.** Erkin shaxsni tarbiyalash: o'z-o'zini anglashning yuksak darajasi; fuqarolik, o'z qadr-qimmatini his qilish, o'zini hurmat qilish, intizomlilik, to'g'rilik; ma'naviy qadriyatlarga e'tibor; qarorlar qabul qilishda mustaqillik va mas'uliyatni his qilish; hayotiy faoliyat mazmunini erkin tanlash.

2. **Tan olish va hurmat.** Tolerantlik, insonning mavjud noyobligini tan olish ham talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim omildir. Ayniqsa, insonparvar shaxs tarbiyasiga erishishda mehribonlik, yaxshilik, sabrlik, chidamlilik, kamtarlik, tinchlik, yaxshi qo'shnichilik kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar negiziga asoslangan tushunshalarning mohiyati talabalar tomonidan to'liq anglanishiga erishish lozim.

3. **Ma'naviyat va ma'rifatda qadriyatlilik.** Bilish va o'z-o'zini anglash, go'zallik, refleksiya, muloqot, hayot mazmunini chuqur tushunishga ehtiyojni talabalarda uyg'otishning pedagogik mexanizmlarining ommabopligi va foydalanishga qulayligini ta'minlash lozim.

4. **Yuksak professional shaxsni tarbiyalash:** eruditsiya, kompetentlilik; tadbirkorlik, raqobatbardoshlilik, boshqarish layoqati; kirishimlilik; ijodiy professional fikrlash qobiliyati, tarixni, xalqlar madaniyatini bilish va hokazo.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy faollik keng ma'noda ifodalanib, bevosita tabiat va jamiyatni o'rab turgan muhit bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Shaxs ijtimoiy faolligining rivojlanishida uning individualligi namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, mehnat, bilish jarayonlarida kundalik yurish turishi, muayyan bilimlar hajmi va jamiyatning odob-axloq me'yorlarini o'zlashtirishi orqali takomillashib boriladi.

Ключевые слова: фольклор, ребёнок, поэзия, музыка, педагогика, психология, литературоведение, искусствоведение, добро, зло, мудрость, храбрость, смирение, справедливость, счастье, дружба, доброта, долг, вина.

PEDAGOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY ON THE BASIS OF FOLKLORE TRADITIONS

Abstract. This article will talk about pedagogical knowledge related to the formation of a child's personality on the basis of folklore traditions, the role of folklore traditions in the formation of a child's personality in the field of foreign and Uzbek scientists' views. Folkloric traditions have been concerned with the methods by which positive changes in a child's personality can be determined. It also talks about the influence of external factors that affect the formation of the personality of the child.

Key words: folklore, child, poetry, music, pedagogy, psychology, literary criticism, art criticism, good, evil, wisdom, courage, humility, justice, happiness, friendship, kindness, duty, guilt.

Kirish. Yurtimizda ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun talay ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada folklor an'analari asosida bola shaxsini shakllantirishning ahamiyati beqiyos. Shuning uchun ham psixologiyaga oid ilmiy-ijodiy yangiliklarni, ayniqsa folklor an'analari asosida bola shaxsini shakllantirish borasida mashg'ulotlarni bugungi yoshlarning salohiyatiga mos zamonaviy talablar asosida tashkil qilish texnologiyasi o'rganish foydadan holi bo'lmaydi.

O'zbek xalqi folklor an'analari o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa xalq og'zaki ijodining turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta'sirchanlik kasb etadi. Xalqimiz o'zining ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida, uning turfa ko'rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko'plab namunalarni yaratgan. Bu esa, uzoq o'tmishdan madaniy va ma'rifiy jihatdan o'ziga xos an'anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli qirralarini badiiy estetik ifodasi sifatida, an'anaviylik asosida avlod-dan-avlodga o'tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emotsional ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda munosabatlar tizimini shakllantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalash masalalari bo'yicha F.A.Akramova, B.M.Botirov, F.F.Ganjyev, E.G'.G'oziyev, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, M.A.Norbosheva, A.M.Nazarov, N.A.Bahriyeva, M.M.Taydjanova, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Bolalar adabiyotining ijodiy qonuniyati kattalar adabiyoti qonuniyatlaridan deyarli farq qilmaydi. Asosiy farq asarlarining kitobxonlarning yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflanishidadir. Ayni shu jihatdan kichkintoylar adabiyoti kattalar adabiyotidan alohida ajralib turadi.

Bolalar adabiyoti tarbiyaga xizmat qilishiga ko'ra pedagogika fani yutuqlariga tayanadi. Ammo, asarlar tahlili, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini baholashda adabiyotshunoslik va mantiq fanlar nuqtai nazaridan yondoshadi.

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanish tarixini sho'ro mafkurasi tan olgan ijodkorlar va avvalo, Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi bilan bog'lash an'anasi ana shunday qilib maydonga keldi. Shu sababli ham o'zbek bolalar adabiyoti revolyusiyadan ancha oldin tashkil topib, ma'lum traditsiyalarga ega bo'lganini e'tirof etgan professor H.Abdusamatov bu adabiyot shakllanishining ilk qadamlarini Hamza nomi bilan bog'laydi: Hamza boshchiligidagi progressiv kuchlar asosan dunyoviy ilmlar, estetik prinsiplar haqida jiddiy narsalar yozib, ularni asta-sekin bolalar ongiga singdirib borishni afzal ko'rdilar. Burjua hamda jadid adabiyoti vakillari esa, aksincha, o'quv darsliklari hamda bolalar uchun yoziladigan asarlar, asosan, ertaklar, yengil-yelpi hikoyalar, oldi-qochdi cho'pchaklar, diniy rivoyatlardan iborat bo'lishini qat'iy talab qilib, amaliy ishlarida ham shunga rioya qildilar, – deb yozadi u.

XX asr boshlarida A.Avloniy, Hamza, M.Abdurashidxonovlar ijodi misolida asosan ma'rifatparvarlik adabiyoti sifatida shakllangan o'zbek bolalar adabiyoti 20-yillar oxiri 30-yillar boshida o'sha davr muammolarining real tasviri orqali yangicha bosqichga ko'tarildi.

Bu davr adabiy jarayoniga Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, G'ayraty kabi professional bolalar yozuvchilarining kirib kelishi bilan ajralib turadi. Necha- necha avlodlar tarbiyasiga xizmat qilgan Zafar Diyorning «Kitob mening do'stiman», «Sentyabr qo'shig'i»,

«Bog'chamiz», Sulton Jo'raning «A'lo» va «Yaxshining maqtovi», «Harflar paradi», «Tinish belgilarining majlisi», «Ikki baho», «Kimning xati chiroyli», «Mamatning kechirmishi» she'rlari shu davr mahsulidir.

30-yillar bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri G'.G'ulom, H.Olimjon, Oybek, Uyg'un kabi kattalar adabiyoti vakillarining ham kichkintoylar uchun barakali ijod qilishlari bilan bog'liq. Jumladan, G'.G'ulomning «O'rdak va Turg'un», «Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi», «Shum bola», Oybekning «Temirchi Jo'ra», «Gulnor opa», «Zafar va Zahro», «Qonli barmoqlar» nomli asarlari bolalar adabiyotining shundan keyingi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

20-yillar o'zbek bolalar adabiyotida umumadabiyot singari «yangi hayot» tantanasini kuylash keng miqyosda yo'lga qo'yildi. 1932 yil V.K.P.B markaziy komitetining «Adabiy badiiy nashriyotlarni qayta tuzish haqida»gi qaroridan keyin barcha yozuvchilar yagona uyushmaga birlashdilar. Shu yillari G'.G'ulom

«Shum bola», «Turksib yo'llarida», «Nortojining kurak tishi», «Ahmad yomon bola emasku, ammo»,

«Tirilgan murda», «Ko'kan», «Yodgor», «Netay» kabi qissa va hikoyalarni, she'rlarni dostonlarini yaratdi. XX asrning 20-30 yillarida Ilyos Muslim, H.Olimjon, G'ayraty, Dorjiya Oppoqova, Zafar Diyor,

Sulton Jo'ra kabi shoir va yozuvchilar bolalarga bag'ishlab turli janrdagi asarlarni yaratishdi. Ularning ichida H.Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg' bilan Parizod» kabi ertak poemalari dunyo yuzini ko'rdi. Oybek esa «Temirchi Jo'ra», «Gulnor opa», «Baxtigul va Sog'indiq», «Zafar va Zahro» kabi asarlari bilan bolalar adbiyotining rivojiga munosib hissa qo'shdi.

XX asrning 30-yillarida Z.Diyor kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan «Yashna Vatan»,

«Gunafsha» kabi ixcham misrali o'ynoqi she'rlarini yaratgan bo'lsa, Sulton Jo'ra «Tinish belgilarining majlisi», «Zangori gilam», «Kimning xati chiroyli», «Harflar paradi» kabi she'r va ertaklarida didaktik g'oyalarni ilgari surdi. Bir qo'lida qalam, bir qo'lida qilich bilan jangga otlangan S.Jo'ra urush yillarida ham, jang maydonlarida jon olib jon berish bilan birgalikda «Yovga o'lim», «Muhammad to'pchi» kabi asarlari bilan vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etdi.

Tahlil. Xozirgi kunda yoshlar tarbiyasi o'ta dolzarb masala bo'lib, u ta'lim – tarbiyada uzluksizlikni, qat'iylik va talabchanlikni, ishlashning zamonaviy va ta'sirchan uslub va vositalarini talab etadi. Chunki ma'naviyati kuchli bulmagan shaxsdan xech kachon yetuk, insonparvar, uz kasbini sevadigan xalqchil mutaxassis tayyorlab bulmaydi.

Buning uchun nimalarga e'tibor berish kerak.

- yoshlarning xar kungi o'qish va yashash sharoitining nazorati;
- yoshlarning kiyinish madaniyati, dars jarayonidagi, jamoa orasida va uyidagi odob-xulkinging nazorati;
- jamoatchilik ishlariga bulgan munosabatlari;
- ijtimoiy va foydali mexnatga jalb kilish va unga munosabatining nazorati;
- yoshlarning xayot tarzini e'tiborga olib ayrim olingan shaxsiy sifatlarni shakllantirish yoki yukotish;
- yashash sharoitiga mos tarzda ayrim sifatlarni shakllantirish yoki yukotish;
- ommaviy axborot va targibot vositalari;
- suxbatlar uyushtirish va uchrashuvlar tashkil etish;
- baxs- munozara tashkil etish va kurik – tanlovlar utkazish;
- akl-idrok bilan ish tutib,xamisha komillikka intilishni uktirish;
- ota-ona, el- yurtni kadriga yetish va xamisha unga sodik farzand bo'lib kolishni uqtirish;
- internet va internet tizimidan samarali foydalanishni yo'lga kuyish
- o'zaro munosabat normalari(maktab, oila va xokazo);
- tarbiyalanuvchining individual va shaxsiy jixatlari va xokazo;

Bu vazifalarni bajarish mas'uliyati bugungi barkamol avlod zimmasiga tushadi va bularning barchasi amalda to'g'ri tadbik kilinsa, yoshlar dunyokarashi kengayadi va ma'naviy – axloqiy yetuk inson bulishiga asos bula oladi.

Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligining qiyosiy darajasi

Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligi	Tajriba-sinov avvalida		Tajriba-sinovdan keyin	
	Nazorat guruhi – 60 bola		Tajriba guruhi – 60 bola	
	bola soni	Foiz hisobida	bola soni	Foiz hisobida
Har tomonlama tarbiyalangan	20	38%	30	50%
Nisbatan har tomonlama tarbiyalangan	25	23%	18	15%
Bir tomonlama	10	18%	4	20%
Sust rivojlangan	3	17%	5	8%
Salbiy xatti-harkatlarga ega	2	4%	3	7%

Ma'naviy tushunchalarning rivojlanganlik darajasini o'rganish uchun ularga quyidagi tushunchalarning ma'nosini tushuntirish va ularga misollar keltirish vazifasi berildi.

Ezgulik, yovuzlik, donolik, botirlik, kamtarlik, adolatlilik, baxt, do'stlik, shafqatlilik, burch, ayb.

Bolalarning har bir javobiga tushunchaning ma'nosini anglanganlikning to'liqligidan kelib chiqqan holda uch daraja baholandi.

1) birinchi daraja (+) – bola tushunchaga aniq va to'g'ri izoh beradi, to'g'ri misollar keltiradi.

2) ikkinchi daraja (–) – bola tushunchani izohlay olmaydi yoki tushunchaga mos kelmaydigan izohlar keltiradi, keltirgan misollari tushunchaning mohiyatiga mos emas.

3) uchinchi daraja (0) – javob berishdan bosh tortadi.

Natijalarni jadvalga kiritish jarayonida ularni matematik qayta ishlashga qulay shaklga keltirish uchun 1-chi darajani 1 ball, 2-chi darajani 2 ball va 3-chi darajani 3 ball ko'rishiga o'tkazib yozildi.

Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijodkorlik inson aql zakovatining barcha ijobiy sifatlarini o'ziga mujassamlashtirilgan yangilik yaratish bilan bog'liq bo'lgan alohida faollik va mustaqil faoliyat turi. Ijodiylik fan, texnika, madaniyat, san'at va ishlab chiqarish sohalarida namoyon bo'ladi. Ijodiylik muammosi xorij tadqiqotlarida keng doirada o'rganilgan. Bu asosan tafakkurdagi ijodiylik masalasida o'rganilgan. Ijodiylikni mustaqil muammo sifatida ajralib chiqishiga aqlning an'anaviy testlari va muammoning yechimi muvaffaqiyati o'rtasida bog'lanish yo'qligi haqida ma'lumot turki bo'lgan. Bu sifat mohiyatan aqlning berilgan vazifalarni hal qilishda tez va turli tarzdagi usullardan foydalanish qobiliyatiga bog'liqligini ifodalaydi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha ijodiylikning nimaligini tushuntirishning o'zi ijodiy harakatni talab qiladi. So'nggi tadqiqotlar mualliflaridan biri ijodiylikni qandaydir ahamiyati va yangi narsaga erishish deb, ya'ni boshqacha aytganda bu insonlarning dunyoni o'zgartirish uchun qilingan harakatlari sifatida ta'riflaydi. Ko'pincha muammolar ijodiylik jarayonining tarkibini turlicha talqin qiladilar. Unga ko'ra, ijodiylikni tafakkur atamalariga ifodalaydi, ijodiy tafakkurni “qiyinchiliklarni, muammolarni, ma'lumotdagi yetishmovchiliklarni, yetishmaydigan elementni, qandaydir kamchilikni his qilish sharoitida bu yetishmovchiliklarga taalluqli tahlil qilish va farazni ifodalash bu tahlil va farazlarni sanash hamda baholash, ularni qayta ko'rib chiqish, tekshirish va oxirida natijalarni umumlashtirish sharoitida ta'riflaydi”.

F.Barron ijodiylik mezoni sifatida sonli va simvolli belgilarni ko'rsatadi. Ijodiylikni o'z-o'zidan harakatda davom etadigan ichki jarayon sifatida ta'riflaydi, mahsulotning yo'qligi, ijodiylikning mavjud emasligidan dalolat beradi, deb ta'kidlaydi. Ijodiylik jarayoni turli xil yo'l bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ichki g'ayratni talab qiladi. Ijodiy jarayonning har bir bosqichida an'anaviy va yangi narsa o'rganishdagi nizo, fikrda turli usul bilan hal qilish

yoki butun jamiyat ichidagi mahsuldorlikni tashkil etishning yuqoriroq darajasida intilish o'rtasida yaratilishi mumkin. Ijodiy jarayonning har bir bosqichida an'anaviy va yangi narsa o'rganishidagi nizo, fikrda turli usul bilan hal qilish yoki taklif etilgan mahsulotni, u noaniqlik va individuallik yoki butun jamiyat ichidagi mahsuldorlikni va tashkil etishning yuqoriroq darajasida intilish o'rtasida yaratilishi mumkin.

Kichik maktab yoshi davrida ijodkorlik imkoniyatini o'rganish maqsadida Ye.Tunikning "Shaxs ijodkorligini 4 yo'nalishini aniqlovchi metodikasi"dan foydalanildi. Mazkur metodikaning maqsadi shaxs ijodkorligini, bilimga qiziquvchanlik, tasavvur, murakkablik va tavakkalchilikka moyillik kabi ko'rinishlarini namoyon bo'lish darajasini aniqlashdan iborat.

Shaxs ijodkorligining 4 yo'nalishini aniqlashga qaratilgan metodika sinaluvchilar guruhida o'tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

Bugungi kunda qudratli qurol bo'lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Shu sababli magistrantimiz tomonidan tayyorlangan tadqiqotda bu dolzarb mavzu ilgari surilgan bo'lib, bolalar kitobxonligi bolalarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratilgan:

- Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha)
- Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 10-12 yoshgacha).
- O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha);

Kichik maktab yoshi davrida ijodkorlik imkoniyatini o'rganish maqsadida Ye. Tunikning "Shaxs ijodkorligini 4 yo'nalishini aniqlovchi metodikasi"dan foydalanilgan, ushbu metodika sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan.

Ushbu bobda "Bola shaxsini folklor an'analari asosida shallantirishning namoyon bo'lishi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" ilmiy jihatdan asoslab berildiki, bu o'quv mashg'ulotlarida nazariy ma'lumot sifatida foydalanish imkonini bergan, shuningdek, bobda "Bola shaxsini folklor an'analari asosida shallantirishning yoshga bog'liq jihatlari" to'g'risidagi ilmiy bilimlar mazmuni va mohiyati, nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilganligi undan tasviriy faoliyat va adabiyot fanlarini o'qitishda foydalanish imkonini yaratib beradi;

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e'tiborning boisi shundaki, faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo'la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat, ijodiylik yaxshi tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagina uyg'onishi, taraqqiy etishi va shaxs kamolotini ta'minlashi mumkin. Har bir pedagog bolalarning ijodiy imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo'lini izlab topishi lozim. Chunki, bolaning aniq bir kasb-korga yoki mutaxassislikka qiziqishi, ma'lum ijodiyot bilan bandligi barcha o'quv jarayonini qamrab ola olmaydi. Har bir ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning maqsad va vazifalari, axloq me'yorlari, madaniy boyliklar, jamiyat a'zolarining didi, axloqiy qarashlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari o'zgarib boradi va ular tarbiya vositasida bolalar ongiga singdirilib boriladi.

"Folklor an'analari asosida bola shaxsini shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusi bo'yicha magistr darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot ishni bajarish davomida to'plangan ma'lumotlar, olingan natijalar quyidagi **xulosa** bandlarini shakllantirish imkonini berdi:

1. Tadqiqot ishida bola shaxsini folklor an'analari asosida shakllantirishning ilmiy-nazariy muammolari, maqsad va vazifalari, uslubiy-amaliy jihatlari atroflicha asoslab berildi.
2. Ushbu tadqiqot ish shunisi bilan ahamiyatliki, bola shaxsini folklor an'analari asosida shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, amaliy usul va vositalari aniqlandi.
3. Tadqiqotda bola shaxsini folklor an'analari asosida rivojlantirish to'g'risidagi chet el, rus va o'zbek psixologlarining nazariy qarashlari asoslab berildi.
4. Ishda bola shaxsini folklor an'analari asosida rivojlantirishga oid mashqlar ishlab chiqildi.

5. Bola shaxsini folklor an'analari asosida rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bolalar ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirlarni belgilab ularni ikki guruhga ajratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Xalq so'zi, 2017-yil 23-dekabr.- №258(6952)
2. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvida s o'zlagan nutqidan.
3. Nishonova Z.T. Ijodiy mustaqil fikrni tarbiyalashda o'qituvchining rolini yanada oshirish // Ta'lim va tarbiya. – 2001. -№1-2 . -B.
4. V.M.Karimova, R.Sunnatova. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. Toshkent «Sharq» 2000.
5. Boden M. The creative mind: Myths and mechanisms. N.Y.: Basic Books, 1992. - c. 24
6. Chikszentmihalyi M. Society, culture, and person: A sistem view of creativity// R. Sternberg, T.Tardif (eds.). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press, 2008. P.325-339.
7. Dodd D.H., White R.M. Cognition: Mental structure and processes. Boston: Allyn and Bacon, Inc. 2000.

Allambergenova Baxargul Xudaybergenovna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali tadqiqotchisi Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasida o'qituvchisi

RUS TILINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI VA USULLARINI PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus tilini o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari va usullarini pedagogik-psixologik asoslari yoritib berilgan. O'quvchilarini rus tilini o'rganish texnologiyaning ahamiyati va pedagogik jarayonni boshqarishga asoslangan ongli ta'lim haqida so'z boradi. Chet tilini o'rganish bo'yicha yuzaga keladigan muammo va yetishmovchiliklar tahlil qilingan. Bundan tashqari rus tili darolarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xotira, tafakkur, intellekt, ishonch, faoliyat, qobiliyat, chet tili, motivatsiya, mnemonika, loyiha texnologiyalari.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В данной статье освещены педагогико-психологические основы современных технологий и методов обучения русскому языку. Изучение русского языка своими учениками говорит о важности технологии и осознанного обучения, основанного на управлении педагогическим процессом. Проанализированы возникающие проблемы и пробелы в изучении иностранного языка. Кроме того, раскрыта проблема использования новых информационных технологий на уроках русского языка.

Ключевые слова: память, мышление, интеллект, уверенность, активность, способности, иностранный язык, мотивация, мнемоника, проектные технологии.

P EDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF MOD ERN T ECHNOLOGI ES AND M ETHODS OF T EACHING TH E RUSSIAN LANGUAG E

Abstract. This article covers the pedagogical and psychological foundations of modern technologies and methods of teaching the Russian language. The study of the Russian language of its readers will talk about the importance of technology and conscious education based on the management of the pedagogical process. The problems and deficiencies that arise in foreign language learning have been analyzed. In addition, the problem of using new information technologies in the lessons of the Russian language is explained.

Key words: memory, thinking, intellect, trust, activity, ability, foreign language, motivation, mnemonics, project technologies.

Kirish. Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim islohatlarini amalga oshirish bo'yicha butunlay yangicha g'oyalar yondashuvlar, tamoyillar va yo'nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo'ydi. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori ilm dargohlaridan yaratiladi. Aynan shu dargohlarda mamlakat ertangi kuniga zamin yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi, yosh avlodning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Dunyo haqidagi barcha bilimlar, jumladan, maktab fanlari ham til orqali idrok etiladi. Til nafaqat aql gimnastikasi va asosiy muloqot vositasi, balki milliy o'zlikni shakllantirishning asosiy qurolidir. An'anaviy ravishda imlo va punktuatsiya qoidalarini o'rganish bilan chegaralangan rus tilidagi ta'lim nutqiy xulq-atvor ko'nikmalarini o'rgatish bilan to'ldirilishi kerak. Zamonaviy maktabda rus tilini o'qitish butun ta'lim tizimidagi sezilarli o'zgarishlar sharoitida amalga oshiriladi. Hozirgi bosqichda o'qitishning asosini asosiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq tizimli-faollik yondashuvi tashkil etadi, ulardan biri kommunikativ kompetensiyadir. Zamonaviy hayot o'quvchidan tilni mukammal bilishni, turli vaziyatlarda, noqulaylik his qilmasdan, turli odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini talab qiladi. Shunday ekan, fikrni og'zaki va yozma shaklda izchil ifodalash, yozilganlarni tahlil qilish va takomillashtirish, muhokama qilinayotgan masala yuzasidan malakali fikr bildira olish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilar nutqi va nutqini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. fikrlash faoliyati. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompyuter va telefonlarni juda yaxshi ko'radigan zamonaviy maktab o'quvchilari o'zlarining muloqotlarida jarangli iboralar, qisqartirilgan so'zlarni ko'proq ishlatishadi, ko'pincha jonli, madaniy nutqni mimika va imo-ishoralar bilan almashtiradilar. O'quvchilar har doim ham o'z nutqlarida erkin bahslash olmaydi, umumlashtirilgan xulosalar chiqara olmaydi yoki bir-biri bilan erkin va o'zboshimchalik bilan muloqot qila olmaydi. Ko'pincha ular jonli, madaniy nutqni standart kundalik yuz ifodalari va imo-ishoralari bilan almashtirishga harakat qilishadi.

Adabiyotlar tahlili. Rus tili darslarida matndan asosiy o'qitish vositasi sifatida foydalanish masalasi lingvistik va ilmiy-metodik adabiyotlarda keng yoritilgan. Turli yillarda 20-asrning taniqli tilshunoslari, psixologlari va pedagoglari M.T. Baranov, M.A. Rybnikova, N.M. Shanskiy va boshqa tadqiqotchilar. Bugungi kunda A.D.ning asarlarida. D. Eikina, T.A. Ladyzhenskaya, M.R. Lvov va boshqa zamonaviy olimlar, u to'liq asoslash oldi. Tilshunoslikda matn "tilni harakatda" ko'rsatadigan katagoriya sifatida ta'riflanadi. Darsdagi nutq muhitini sun'iy emas, balki butunlay tabiiy holga keltirish uchun matnning ana shu sifati. Matn bilan ishlash polilogga aylanishi kerak, unda har bir o'quvchi faol ishtirokchiga aylanadi. Rus tili darsida o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ijodiy faoliyati muhitini yaratish maktab o'quvchilarida matn bilan ishlashga qiziqish uyg'otadi. Matn bilan murakkab ish kabi ish turiga alohida e'tibor berilishi kerak. Va bu yerda matnlarni tanlash mezonlari juda muhimdir. Ular imlo jihatidan qiziqarli bo'lishi, uslubi, nutq turi, so'z boyligi jihatidan farq qilishi, turli sintaktik konstruksiyalarni o'z ichiga olishi kerak. Bular A.S.Pushkin, I.S.Turgenev, I.A.Bunin, K.G.Paustovskiy va boshqa mualliflarning asarlaridan parchalardir. Mazmun nuqtai nazaridan, o'qituvchi uchun til, nutq, so'zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarurligi, so'z badiiy asarini yaratish jarayonining xususiyatlari to'g'risidagi matnlarni tanlash va tahlil qilish juda muhimdir. badiiy asarni ijodiy faoliyat turi sifatida idrok etish haqida. Zamonaviy o'quvchini tarbiyalash va rivojlantirishda shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga qaratilgan matnlar alohida rol o'ynaydi: xotira madaniyati, o'tmish, hozirgi va kelajakka munosabat, milliy an'analar, ekologik muammolar va boshqalar.

Tahlillar va amaliy natijalar. Rus tilini maktablar, kollej va litseylar, universitetlarda, shuningdek, maktabgacha ta'lim dargohlarida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Rus tili ham ingliz tili kabi ikkinchi tilimizga aylanib bormoqda. Til - ta'limning eng muhim vositasidir, faqat ona tilini yaxshi bilishgina boshqa tillarni jumladan, rus tilini o'rganishga va o'qitishga yordam beradi. Bugungi kunda ko'plab ota-onalar nafaqat farzandlarining ona tilini saqlab qolishga, balki rus tili va boshqa xorijiy tillarni ham o'zlashtirishga intilmoqda. Jamiyatda rus tiliga bo'lgan talab, shuningdek, ota-onalarning iltimos va takliflari kun sayin ortib bormoqda. Agar ota-onalar farzandlarining rus yoki chet tilini chuqur o'rgatadigan yaxshi maktabda o'qishini xohlasalar bola maktab yoshigacha bu tilni ma'lum darajada bilishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar uchun til o'rganish qanchalik erta boshlansa, til ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Rus tilini o'qitishning asosiy shakli darsdir. Sababi yurtimizda ushbu til birinchi tili bo'lgan aholi soni u qadar ko'p emas va hammada ham jonli muloqot orqali ushbu tilni o'rganish imkoniyati mavjud emas. Mashg'ulotlarning asosiy

maqsadi bolalarning nutq faolligini uyg'otish va rus tilidagi nutqning to'g'riligiga erishishdir. Bolalarga rus tilini o'rgatish bo'yicha ishlarni rejalashtirishda o'qituvchi guruhdagi, oilalardagi nutq holatini, bolalarning rus tilini tushunish darajasini hisobga olishi kerak. Har bir darsda nutq muammolarini har tomonlama y echish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda mavzu va aniq vazifalardan qat'i nazar, tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari ustida ish bir vaqtda olib boriladi, izchil nutq malakalari shakllantiriladi. Rus tilini o'qitishning asosiy muammosi - bu bolaning yoshi. Ma'lumki, bolalarga rus tilini o'rgatishda ularning yoshi asos qilib olinadi, chunki bola chet tilini so'zlar, qo'shiqlar, musiqa va o'yinlar orqali o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ch et tilini o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda ch et tilida boshlang'ich muloqot ko'nikmalarini shakllantirish;
- bolalarda ch et tillarini k eyingi o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni rivojlantirish;
- ch et tilining tuzilishiga ko'nikish davrini tashkil etish;
- bolaning tushunishini osonlashtirish.

Har qanday tilni o'rgatishda bolaning nutqi yodlangan iboralar va so'zlarga asoslanishiga yo'l qo'ymaslik kerak, zero bu narsa bolani cheklab qo'yadi va doimiy takrorlanishga olib keladi. Avval boshidanoq bolalar tomonidan rus tilini o'rganishning asosiy sababi bu muloqot qilish uchun foydalanish g'oyasini o'z ichiga olmog'i lozim. Ushbu jihat bolaga erkinlik taqdim etadi hamda ma'lum bir qolipga tushib qolishdan saqlaydi. O'qituvchilar, ota-onalar va yonatrofdagilar tomonidan aytilgan aytilgan narsalarni tushunish va anglash rus tili o'qitishning dastlabgi davrlarida asosiy maqsad bo'lmog'i lozim. Maktabgacha yoshda rus tilini o'rgatishda bolalarda muloqot va malaka asoslari asta-s ekin shakllanadi, rus tilini o'rgatishning dastlabki bosqichlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchidan k eyin rus tilidagi so'zlarni fon etik nuqtai nazardan to'g'ri takrorlash qobiliyati;

- rus tili lug'atini mustahkamlash va o'zlashtirish;

- darslarni qiziqarli tashkil etadigan jihatlarga e'tibor qaratish va bolalarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish.

O'qituvchilarning metodikasi hamda kasbiy mahorati yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga erishishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifa - kommunikativ vazifalardan foydalanish va xilma-xillik orqali bolani qiziqtirish va uni mashg'ulotga jalb qilish, barcha o'quvchilarni qamrab olish uchun hamma imkoniyatlarni ishga solishdir. Misol uchun, so'zlarni o'rgatishda siz birinchi navbatda bolaga biror jismni ko'rsatasiz va uning nomini rus tilida talaffuz qilishga undaysiz, o'quvchilar so'zni talaffuz qiladilar va yangi so'zni qayta talaffuz qiladilar. Og'zaki nutqni rivojlantirishda nafaqat rasmlardan balki istalgan turdagi ko'rgazmali qurollardan foydalaning. Bundan tashqari, rus tili musiqa, sh e'rlar, tez aytishlar va qofiyadosh so'zlarni yodlatish, talaffuz qildirish ham ancha samarali hisoblanadi. Agar taqdim qilinadigan audio materiallar videokliplar bilan birga taqdim etilsa yanada samaraliroq bo'lar edi, sababi bunda maktabgacha yoshdagi bolalar unda aks ettirilgan muloqot holatini, muloqotga kirishayotgan shaxslarning mimikalari, tana harakatlarini kuzatib yanada jarayonni anglashlari tezroq kechar edi.

So'nggi o'n yilliklarda rus tili metodologiyasida o'quvchilarning aqliy faoliyatini boshqarish uchun pedagogik- psixologik materiallardan foydalanila boshlandi; Maktab o'quvchilari va kompyuterlar o'rtasidagi muloqot psixologiyasi muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Texnika didaktika bilan chambarchas bog'liq. Didaktika bilim, ko'nikma va odatlarni o'zlashtirish va e'tiqodni shakllantirish qonuniyatlarini ochib beradi, ta'lim mazmunining hajmi va tuzilishini belgilaydi, o'qitishning metodlari va tashkiliy shakllarini, ta'lim jarayonining o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sirini takomillashtiradi.

Didaktika kurslarida usullarning turli tasniflari keltirilgan. Usullarni reproduktiv, qidiruv, muammoli deb atash mumkin. Ba'zi didaktika metodlarini ma'ruza, amaliy, mashq usuli, tahlil yoki sintez usuli, deduktiv, induktiv, til tahlili usuli, kommunikativ metod, genetik (so'z

yasalishini o'rganishda, uchun misol), imlo masalalarini y echish usuli (imloni t ekshirish orqali), uni qidirish usuli sifatida tasniflash mumkin va hokazo. Uslubda ko'plab didaktik tushuncha va atamalar ham qo'llaniladi: dars, darslik, malaka, o'quv maqsadlari, ta'lim va boshqalar. O'qitish predmeti - rus tili - texnikaning tilshunoslik va uning asosiy tarmoqlari bilan eng yaqin aloqasini ta'minlaydi.

“Til - bu tizim va uni maktabda o'rganish tizimli bo'lishi kerak, ya'ni uning barcha darajalari va bo'limlari o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirda o'rganilishi kerak: so'zning grammatik ma'nosi ustida ishlash uning fonetik va so'z yasalish tahlilini, ma'nosini to'g'ri tushunishni, boshqa so'zlarga mos kelishini, so'zning gap tarkibiga kirishini va so'zning so'z yasashini taqozo etadi. Bunday yondashuv tilni yagona funksional tizim sifatida egallashni ta'minlaydi”.

Tizimli yondashuv o'quv jarayonini mod ellashtirishni talab qiladi. Ushbu yondashuvning boshlang'ich nuqtasi “lingvistik shaxs” modelidir. U ijtimoiy tartibga asoslanadi. O'qituvchi maktab o'quvchilariga dars berishga kirishar ekan, ta'lim tizimimizdan o'tgan yosh bolada qanday til ko'nikmasi va qobiliyati bo'lishini aniq tasavvur qilishi kerak.

Ilmiy bilishning umum e'tirof etilgan tamoyillari va usullari majmui sifatida tizimli yondashuv nazariyasi kabi xususiyatlarni quyidagi olimlar tadqiqot olib borganlar: V.V. Babayts eva, E.F. Gl ebova, A.D. D eykina, N.D. D esya eva, E.D. Dn eprov, L.Yu. Maksimov, M.V. Panov, M.M. Razumovskaya, N.M. Shanskiy va boshqalar. O'rta maktab dasturlaridagi sezilarli o'zgarishlar rus tilini ona tili sifatida o'qitishga kommunikativ yondashuvning o'rnatilishi bilan bog'liq. Dasturlarga “matn”, “matn turlari”, “matn uslublari” kabi ko'plab nutq fanlari tushunchalari kiritildi, bu rus tilini o'qitishda kommunikativ yo'nalishning oshishiga olib k eldi. Maktabda matn tanqidining asoslari quyidagi tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan. Kostomarov, L.A. Vedenskaya, N.A. Ippolitova, V.N. Meshcheryakov, I.B. Golub, T.I. Chizhova va boshqalar.

Asrlar boshida tilni o'rganishdan nutqni o'rganishga e'tibor qaratildi, olimlar e'tibori esa o'rganish ob'y ektidan (tildan) nutqiy faoliyat sub'y ektiga (inson) o'tdi. Bu fakt antropots entrik (yunoncha *antropos* - odam) d eb ataladigan yondashuvning s ezilarli darajada kuchayishini oldindan b elgilab b erdi. Ushbu yondashuv doirasida inson barcha ilmiy konstruktsiyalar uchun mos yozuvlar nuqtasi sifatida ishlaydi.

Antropotsentrik yondashuv o'zining zamonaviy ko'rinishida nihoyat gumanitar fanlarda yaqinda, ming yilliklar boshida shakllandi, garchi u V.Gumboldtning lingvistik kontseptsiyasidan boshlangan. U nafaqat tilshunoslikda, balki metodologiyada ham yangi muammolarni shakllantirishni talab qildi. Ushbu yondashuv doirasida inson barcha ilmiy konstruktsiyalar uchun mos yozuvlar nuqtasi sifatida ishlaydi. Shunday qilib, antropologik yondashuvga ko'ra, asosiy e'tibor talabning tilni o'zlashtirishdagi faolligiga, bu faoliyatni boshqarishga, nutqni rivojlantirishga va shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratiladi. Mualliflarning ilmiy ishlanmalari rus tilini o'rganish tamoyiliga asoslanadi. Bibler, D.N. Bogoyavl enskiy, A.A. Bodal ev, P.Ya. Galperin, B.S. Gershunskiy, N.D. Golev, V.V. Davydov, A.A. L eontyev, A.N. L eontyev, N.A. va boshqalar.

“Rus tili metodologiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun boshqa tegishli ilmiy yo'nalishlar - prosodiya, diction nazariyasi, stilistika, ritorika va adabiy janrlar nazariyasi bilan aloqalar zarur. O'quvchilar nutqini rivojlantirishda metodika adabiy tanqid, poetika, mantiq va sahna ijrochiligi nazariyasiga asoslanadi”.

Metodika tarixiy grammatika, fonetika va dialektologiyaga tayanmasdan ishlamaydi. U yangi lingvistik nazariyalarning paydo bo'lishiga sezgir: so'z yasalish nazariyasi, matn turlari nazariyasi, gaplarning aktual bo'linish nazariyasi, imloning fon emik nazariyasi va boshqalar.. Shu bilan birga, o'zlarining ilmiy izlanishlarida ko'pchilik. mualliflar ilmiy bilimlar uzluksizligi va tarixiy xotiraga tayanishda ifodalangan tarixiylik tamoyiliga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh bolalarga til o'rgatish qiziqarli mashg'ulotdir. Bugungi kunga qadar barcha bog'chalar zarur jihozlar bilan ta'minlangan. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda o'z m etodikasiga amal qilishi, ularni rus va boshqa ch et tillarini o'rganishga qiziqтира

olishi kerak. Bolalar qo'shiqlari, she'rlari va boshqa bir qator o'yinlar yordamida o'qituvchi bolalarni yangi xorijiy tillarni o'rganishga jalb qila olishi kerak. Bundan tashqari, chet tilini o'rganish yangi ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishga, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Har bir ota-ona o'z farzandining chet tilini bilishini va o'zlashtirishini xohlaydi, shuning uchun chet tilini o'rganishni maktabgacha yoshdan boshlab 4-5 yoshdan boshlagan maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonashvili Sh. Insonparvarlik pedagogikasi haqida mulohazalar. - M., 2001 yil.
2. Bespalko V.P. Pedagogika va ilg'or ta'lim texnologiyalari. - M., 1995 yil.
3. Suvorova V.P. Matnni idrok etish va yaratishni o'rganish yagona ijodiy jarayondir // RYaSh. - 2001. - 6-son.
4. St epanova L.S. Matnni tahlil qilish imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishning asosiy turi sifatida // RyaSh. - 2001. - 2-son.
5. Arkhipova E.V. va boshqalar Rus tilini o'qitish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. talabalar uchun yordam yuqoriroq p ed. darslik muassasalar Ed. R.B. Sabatko eva. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2005. - B. 9.
6. Balixina T.M. Filologning kasbiy kompetensiyasining mazmuni va tuzilishi. Rus tilini o'qitishning uslubiy muammolari. dis. ishga ariza uchun uch. Art. dok. p ed. Sci. M.: 2000. - B. 59.
7. Arkhipova E.V, Voit el eva T.M., D eykina A.D. va boshqalar Rus tilini o'qitish nazariyasi va amaliyoti: Oliy pedagogik o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Ed. R.B. Sabatko eva. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2005 yil.

G'aybullayeva Nafisa Izatullayevna
BuxDU dotsenti, f.f.d. (DSc)

MILLIY QADRIYATLARDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING OBRAZLI TALQINI

Annotatsiya. Maqolada lisoniy ongda estetik bahoni va milliy qariyatlar obrazli maydonini aniqlashtirish uchun lingvomadaniy konseptlarning bir necha tadqiqiy tahlillari amalga oshirilgan. Kasallik va salomatlik konsept nomlarini atovchi so'zlarning etimologik, semantik va statistik tahlili, ularni hosil qiluvchi so'zlarning konnotativ assotsiativ ma'nolarining semantik tahlili; ular bildiruvchi so'zlar ishlatilgan matnlarning interpretativ semantik va madaniy interpretativ tahlili; shu qatorda leksik-semantik maydondagi leksik birliklarni mavzuviy guruhlari tavsiflangan, hamda milliy obrazlar maydoni yaratilgan. Milliy-madaniy ifodalar turli til birliklarida turlicha farqlangan.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, milliy qadriyat, konsept, semantik maydon, yadro, markaz, periferiya, makon va zamon, prototip, stereotip, lisoniy manzara.

ОБРАЗНОЕ ТОЛКОВАНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЯХ

Аннотация. В статье проведён ряд исследовательских анализов лингвокультурных концепций для уточнения эстетической оценки в языковом сознании и образного поля национальной старины. Болезнь и здоровье этимологический, семантический и статистический анализ слов, обозначающих понятия, семантический анализ коннотативных ассоциативных значений слов, образующих их; интерпретативный семантический и культурно-интерпретативный анализ текстов, в которых используются слова, обозначающие их; в том числе описаны тематические группы лексических единиц в лексико-семантическом поле, а также создано поле национальных образов. Национально-культурные выражения по-разному дифференцировались в разных языковых единицах.

Ключевые слова: лингвокультура, национальная ценность, понятие, семантическое поле, ядро, центр, периферия, пространство и время, прототип, стереотип, языковой ландшафт.

FIGURATIVE INTERPRETATION OF LINGUISTIC UNITS IN NATIONAL VALUES

Abstract. The article carried out several research analyzes of linguistic concepts to clarify the aesthetic assessment in the linguistic consciousness and the figurative field of National old age. Etymological, semantic and statistical analysis of the words that name the concept of disease and health, semantic analysis of the connotative associative meanings of the words that form them; interpretative semantic and cultural interpretative analysis of the texts in which the words they denote are used; at the same time, thematic groups of lexical units in the lexical-semantic field were described, as well as a field of national images were created. National-cultural expressions have been differentiated differently in different language units.

Key words: Linguistics, national value, concept, semantic field, core, center, periphery, space and time, prototype, stereotype, linguistic landscape.

Kirish. Ma'lumki, tafakkur va til ongning alohida olingan va o'zaro chambarchas bog'langan ikki sohasidir. Bunga mos ravishda dunyoning ikki xil: konseptual va lisoniy manzarasi mavjud deb hisoblanadi. Inson o'z tushunchalarini til bilan ifodalashga qadar dunyo

bilan ma'lum darajada tanishadi, dunyoni hissiy bilish xususiyatidan kelib chiqib, ularni boshqa turdagilardan farqlashga intiladi. Barcha sohadagi tadqiqotlarning negizida inson va uni o'rab olgan cheksiz olam turar ekan, til ham uning bu olamda yashashi va faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Inson shuuridagi eng teran qatlami bo'lmish olamning lisoniy manzarasi aynan til bag'rida shakllanadi, tilning o'zi olam manzaralarining boshqa turlarini ifodalaydi va namoyon qiladi. Alohida individlar qo'lga kiritilgan tajribaviy bilimlar faqat til yordamida xalq tajribasiga va madaniyatiga aylanadi. Inson faoliyati davomida to'plangan bilim uning ongida aks etadi. Binobarin, bunday mental tasvirlar milliy-madaniy faoliyatning aks etishi ekanligi haqida dunyo olimlarining qimmatli fikr-mulohazalari mavjud.

V.Gumboldt "Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim chegaralarini belgilaydi"[6], degan fikrni bildirsan, N.Alefirenko "Tilda ma'lum milliy madaniyat vakillari olamni anglashida muhim bo'lgan obyektlar ifodalanadi va lisoniy ongda ma'lum lingvomadaniyat uchun mazmun kasb etuvchi muhim ma'lumotlar muhrlanadi", deb yozadi. N.Alefirenko milliy-madaniy qadriyatli manzarani maydon sifatida tasavvur etish mumkinligini ta'kidlaydi va uning yadrosini milliy kognitiv baza tashkil etadi, degan xulosaga keladi [2]. Sh.Safarov shu o'rinda: "So'z semantik strukturasi markaziy qobig'ini egallaydigan tushuncha mundariyasi va ko'lamiga nisbatan, xuddi ma'noning o'zi kabi milliylikka moyildir"[14], der ekan, buning isbotini alohida narsa-hodisalarning turli tillarda lisoniy nomlanishidagi farqlarda ko'rsatadi.

Qadriyat tushunchasi, bizningcha, ma'lum bir millatning kelib chiqishi, uning tarixi, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini o'zida mujassam etgan muhim ahamiyatga molik nafaqat falsafiy, balki lisoniy hodisadir.

Qadriyatlar yaqinda paydo bo'lib qolmagan, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan, uzoq tarixiy jarayonda shakllangan an'analar, urf-odatlar jamlanmasidir. Milliy qadriyatlar ayrim xalq, millatlar va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iboratdir. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini saqlab qolish, xavfli kasalliklarning oldini olish, oziq-ovqatga, energiyaga va yoqilg'iga bo'lgan tanqislikni tugatish, madaniy boyliklarni, sivilizatsiyani eson-omon saqlab qolish, urushlarning boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish – bularning hammasi umuminsoniy / umumbashariy qadriyatlardir[12]. Umuminsoniy qadriyatlar inson manfaati, inson erkinligisiz mavhum mutlaq qadriyat bo'lib qolaveradi. Hamma qadriyatlar tizimi mazmunida insonning aniq manfaati va uning qadr-qimmatini yotadi.

So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti sifatida inson, til, millat va madaniyat o'rtasidagi aloqaga alohida e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik kesishmasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'zaro uyg'unlashib, ularning asosini tashkil etuvchi yangi yo'nalish sifatida lingvomadaniyatshunoslik sohasi yuzaga keldi.

Dunyo tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik E.S.Kubryakova, N.D.Arutyunova, V.V.Kolesov, D.S.Lixachev, R.S.Pavlionis, R.S.Stornin, V.Karasik, Yu.S.Stepanov, E.M.Vereshagin va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganilib, e'tirof etilgan. Etnomadaniy tajribalar lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishi tilshunoslikning o'ta dolzarb va muhim sohalaridan biriga aylanishiga zamin yaratdi.



1- rasm. “Til va madaniyat o’rtasidagi munosabat”

Har bir tilda millat va uning milliy qadriyatlariga murojaat qilgan holda, xalqlarning madaniy elementlarini aks ettiruvchi maxsus bo‘linmalar bo‘ladi. Bunday birliklar ma’lum bir millatga xos bo‘lgan etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlarni, milliy urf-odatlarini, odob-axloq me’yorlarini ifodalaydi. Bunday qo‘shimcha lisoniy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan birliklar milliy-madaniy birliklar yoki *milliy-madaniy unikal* ~o‘ziga xos birliklar deyiladi.

O‘zbek tilshunosligida D. Xudoyberganova badiiy asarlar, filmlar, folklor materiallari kabi ommabop matnlarni milliy-madaniy ramzlarni bir avloddan boshqasiga uzatuvchi vosita sifatida ko‘rib chiqadi [13].

Uning so‘zlariga ko‘ra, taqlid, metafora, maqollar va frazeologik birliklar, nutq odob-axloqi, ibodatlar bu milliy va madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan lisoniy va madaniy hodisadir.

Milliy-madaniy ifodalar turli til birliklarida turlicha aks etadi. Ba’zi birliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy o‘ziga xoslikni anglatadi, ba’zi birliklarda esa bu belgi bilvosita paydo bo‘ladi. Ba’zilarida so‘zlar, madaniy semema leksik ma’no bilan birga yashaydi, boshqalarda esa ular orqali ko‘chma ma’no paydo bo‘ladi.

Masalan, o‘zbek tilidagi *isiriq* leksemasi milliy-madaniy birlikdir. Xalq tilida «ming bir dardga davo» deb nom olgan bu giyohni ta’riflashga hojat bo‘lmasa kerak. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida “quymich asablari shamollashiga tizza va suyaklar qaqshab og‘riganida, og‘riq qoldiruvchi dori sifatida isiriqni tavsiya etgan. Parishonxotirlik, istiqo, qo‘lanj, falaj, ya’ni, tananing bir qismining ishlamay qolishiga isiriqdan olib, uning vaznidan uchdan bir miqdorda tuyilib unga zanjabilni ituzum bargi bilan xamir qilib quyoshga qo‘yib qayta-qayta bog‘lash kerakligi” aytib o‘tilgan [11]. Isiriq qaynatmasi ham ming dardga shifo ekanligi quyidagi misralarda tasvirlangan.

**Isiriqni ivitib, ichilgan zamon,
Savdoiy moddalar ketadi ayon!
Qoningni tozalab, musaffo qilar,
Iching qotgan bo‘lsa yumshatar har on [2].**

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan *isiriq tutatish marosimi* nafaqat kasallikka davo sifatida balki, o‘zbeklarning deyarli barcha marosimlarida (chaqaloq tug‘ilganda, xatna to‘ylarda, kelin-kuyovlar chimildiqqa kirganida) an’ana sifatida tutatiladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “isiriq – isiriq, bolalarning boshlariga toshadigan yaralarda yoki ko‘z tegishidan, kasallarni davolaganda tutatiladi va bolaning yuziga tutunini «isiriq-isiriq” (“e jin, es-hushingni yo‘qot!” deb tutiladi)” deb yozgan bo‘lib [DLT 1960, 1: 125] [7], qozoqlar “adiraspan”, Onado‘li turklari esa “yuzarlik” deb ishlatadigan “isiriq” so‘zi va u bilan bog‘liq an’analar bugungi kunda ko‘proq o‘zbeklarda uchraydi. O‘g‘uz turklari “isiriq” tutatish bilan bog‘liq irim-sirimlarni deyarli unutgan bo‘lsalar, o‘zbeklar, xoh yirik shaharlarda yashasin, xoh chekka qishloqlarda – bu an’anani “Devon”da qanday keltirilgan bo‘lsa, shu ko‘rinishda qo‘llab keladilar. Ushbu so‘z Buxoro viloyatining ko‘pgina

hududlarida *hazorispan* (*ming dardga davo*) deya ishlatilib, tutatish jarayonida quyidagi aytilmalar aytilgan:

Hazorispanda dud kardem, baloyi ofata daf kardem,

Chashmi xesh, chashmi pesh, hamsohoyi girdi pesh, so'zat dar olavi tez.

Ma'nosi: isiriq tutatkisi balo-ofatlar (kasalliklar)ni yo'q qil, qarindoshlar, qo'shnilar, atrofimizdagi yaqinlarning ko'z qilganlari sening olovingda yonsin.

O'zbek milliy qadriyatlar obrazli semantik maydonida *salomatlik* konsepti – oliy ne'mat, boylik, aql, oltin, baxt, tinchlik, yaxshi yashash, shuningdek, *kasallik* konsepti – tubanlik, dard, g'am, qashshoqlik, omadsizlik, aqlsizlik kabi tushunchalarni anglatuvchi leksik birliklar orqali voqelanadi.

Ma'lumki, dunyoning milliy-madaniy, obrazli manzarasining yaratilishida lingvomadaniy jihatdan aniqlangan birliklarning o'rni beqiyosdir. Bunday birliklarni *milliy-madaniy semaga ega bo'lgan* va *nutqda milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan* birliklar sifatida ajratish maqsadga muvofiqdir.

Milliy madaniy semaga ega bo'lgan birliklar – muqobili bo'lmagan leksika yoki voqelik deb yuritiladi. O'zbek tilida beshik, *do'ppi*, *atlas (mato)*, *yaktak*, *belbog'*, *karnay-surnay*, *nog'ora* kabi madaniy semaga ega bo'lgan leksik birliklar mavjud bo'lib, bunday leksemalar bevosita o'zbek xalqi, uning milliy urf-odatlarini va tiliga bog'liq sanaladi. Masalan, o'zbek tili uchun milliy-madaniy birlik bo'lgan beshik so'zi lingvomadaniy birlik bo'lib xizmat qiladi. Beshik – bu o'zbek xalqi madaniyatining ramzi, lingvomadaniy birlik sifatida tilda shunday gavdalanadi. Chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo'ljallangan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama. Beshikda yotganda bolaning tagi quruq, toza turadi. Beshikning bir maromda tebranishiga ona allasining hamohangligi bolaga yaxshi ta'sir etadi, uning tinch, osuda uxlashini, ruhan sog'lom yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi. Shu o'rinda *salomatlik* konseptual obrazli maydonida yana bir stereotip sifatida *beshik* leksemasi ham voqelanadi.

Demak, ongda har bir tushunchaning o'z surati bor, ya'ni har bir so'z o'z freymiga ega. Jumladan, *beshik*, *isiriq* va *daraxt* leksemalarining stereotiplari sifatida kishi tafakkurida qanday freymlar hosil qilishini kuzatamiz: *beshik* freymi sog'lom rivojlanish; *isiriq* freymi shifobaxshlik; *daraxt* freymi esa (chinor – daraxti uzoq-umr, mevali daraxt – farzand) semalari bilan idrok etiladi va hislar orqali tuyg'ularga ta'sir etib lisonda voqelanadi, ularning ongda aks etishi, albatta sub'yektiv, lekin adresant uchun muayyan.

Semantik maydon – yadro, markaz va periferiyadan tashkil topgan bo'lib ular o'zaro pog'onali aloqada joylashadi [5]. Yadro o'zida birmuncha umumlashgan semantik mazmunni mujassamlashtirsa, markaz aniq, konkret ma'noli birikmalardan tashkil topgan va periferiya ushbu maydonga kirishi shart bo'lmagan yoki boshqa semantik maydonga ham taalluqli bo'laveradigan, ko'p ma'noli, eskirgan leksik birliklarni o'z ichiga oladi.

Milliy qadriyatlar obrazli maydondagi yadro hamda periferiya makon va zamon holatiga ko'ra faol. Milliy qadriyatlar obrazli maydoni prototip tushunchalar va stereotip obrazlar orqali millat lisoni tafakkurini harakatga keltiradi.



2 – rasm. “Obrazli maydon”

